



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti huzuridagi
Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish tarmoq markazi

OLIY TA'LIMDA MUMTOZ SHE'R TUZILISHIGA INNOVATSION YONDASHUV

o'quv-uslubiy majmua

O'zbek tili filologiyasi: o'zbek
adabiyotshunosligi
yo'nalishi tinglovchilari uchun



2026



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**OLIY TA'LIMDA MUMTOZ SHE'R
TUZILISHIGA INNOVATSION YONDASHUV**

moduli uchun

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

**Malaka oshirish kursi yo'nalishi: O'zbek tili filologiyasi: o'zbek
adabiyotshunosligi**



Toshkent – 2026

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

D.Yusupova – filologiya fanlari
doktori, professor

Taqrizchilar:

S.Meliyev - filologiya fanlari doktori,
professor

M.Abdullayeva - filologiya fanlari
doktori, professor

J.Eshonqul - filologiya fanlari
doktori, professor

A.Oldfield - professor

Mazkur o'quv-uslubiy majmua ***Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining*** qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2025-yil
"29" dekabrdagi 6- sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

T/r	Bo'limlar	Sahifa
I.	ISHCHI O'QUV DASTUR	17
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	31
III.	NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI	60
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI	76
V.	KEYSLAR BANKI	81
VI.	GLOSSARIY	93
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI	102
VIII.	TAQRIZ	106

I. ISHCHI O'QUV DASTUR



KIRISH

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-14-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmonlari, shuningdek, 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-son va 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-son Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim

muassasalari pedagog kadrlarining ta'lim-tarbiya jarayonlarida ma'naviy-ma'rifiy muhit barqarorligini ta'minlash, davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligini va daxldorlik tuyg'ularini oshirish, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini o'zlashtirish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini o'rganish, undagi asosiy o'zgarishlarni tahlil etish va baholash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirishni maqsad qiladi.

“Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga innovatsion yondashuv” moduli oliy ta'limdagi professor-o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi oldiga davr tomonidan qo'yilayotgan yangi talablar asosida tuzilgan. Mamlakat hayotida yuz berayotgan jiddiy o'zgarish va yangilanishlar, shubhasiz, oliy filologik ta'lim tizimida adabiyotshunoslik bilan bog'liq fanlarni o'qitishni yo'lga qo'yish borasida ham tubdan yangilanish bo'lishini taqozo qiladi.

So'nggi yillarda oliy ta'limning filologik yo'nalishlarida mumtoz poetika, xususan, aruz she'r tizimini o'qitishga alohida e'tibor qaratilayotganligi, bakalavriat yo'nalishining quyi bosqichlardayoq "Aruz va mumtoz poetika", "Klassik she'r o'lchovi" kabi fanlarni o'qitishning joriy etilayotganligi e'tiborga molik jihatlardandir, zero, o'zbek mumtoz adabiyotining ajralmas qismi sanalgan she'rshunoslik, xususan, aruz tizimini chuqur bilmaslik mumtoz janrlarda yaratilgan badiiy namunalar mohiyatini to'la anglashda murakkabliklar tug'diradi. Shu bois mumtoz vazn hisoblanmish aruzni qulay uslubda o'rganish va o'rgatish bugungi kun ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Mumtoz adabiyotimiz vujudga kelgan davr va bugungi kun oralig'idagi uzoq muddat, globallashuv jarayonining kundan-kunga kuchayishi, zamonaviy texnologiyalarning katta tezlik bilan maishiy turmushimizga kirib borayotganligi, cheksiz informasiyalar insonlarning badiiy did va saviyasiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazayotgani natijasida mumtoz shoirlarimizning boy ijodiy merosidan yoshlarimizning yetarlicha bahramand bo'lmayotganliklari sir emas.

Xalqimizning ma'naviy negizi hisoblanmish mumtoz adabiyotni o'rganish, yoshlarda unga nisbatan chuqur ehtirom va qiziqish uyg'otish, ularni bunga jalb qilish kun tartibidagi dolzarb masalalardandir. Chunki ajdodlarning ma'naviy merosi bizga o'zligimizni anglatadi, yot g'oyalarga, "ommaviy madaniyat" kabi salbiy g'oyalarni targ'ib etuvchi hodisalarga karama-qarshi kuch sifatida shakllanuvchi mafkuraviy immunitetning ma'naviy fundamenti bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun ham ushbu modul oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilariga mumtoz she'rshunoslik, xususan aruz tizimini o'qitishda yangicha yondashuv yo'llari borasida tushuncha beradi.

Modulning maqsad va vazifalari

"Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga innovatsion yondashuv" modulining **maqsadi** malaka oshirish kursi tinglovchilarida adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasiga doir turli fanlar, ayniqsa, "Aruz va mumtoz poetika" fanini o'qitish borasida yangicha ilmiy yondashuvlarni shakllantirish va ularni amalda qo'llash ko'nikmalarini o'rgatishni ko'zda tutadi.

Ushbu modulning **vazifalari** quyidagilardan iboratdir:

- oliy maktab professor-o'qituvchilarini adabiyotshunoslikka tegishli fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga doir ilmiy-metodik yangiliklar bilan tanishtirish;

- tinglovchilarda “Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga innovatsion yondashuv”, “Aruz va mumtoz poetika”, “Klassik she'r o'lchovi” kabi kurslarbo'yicha samarali saboqlar uyushtirish ko'nikmasini shakllantirish;
- profeesor-o'qituvchilarda “Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga innovatsion yondashuv”, “Aruz va mumtoz poetika”, “Klassik she'r o'lchovi” kabi kurslarni o'tishda turli innovasion usullardan foydalana bilish ko'nikmasini tarkib topdirish;
- tinglovchilarda adabiyoshunoslikka doir fanlarni o'qitishda interfaol usullarni qo'llay olish malakasini shakllantirish;
- tinglovchilarni mumtoz she'riy shakllar va janrlardagi asarlarni tahlil qilishga o'rgatish.

Modul yuzasidan tinglovchilar bilim, ko'nikma, malaka va kompetentligi darajasiga qo'yiladigan talablar

- “Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga innovatsion yondashuv” moduli yuzasidan tinglovchilar quyidagi **bilimlarga** ega bo'lishi kerak:
- sharq mumtoz adabiyotida she'r tuzilishi, mumtoz she'r nav'larini;
 - g'arb va sharq adabiyotida she'r tuzilishiga doir qarashlarni;
 - mumtoz qofiyani aniqlash usullarini;
 - oliy ta'limda aruz tizimini o'qitish muammolarini;
 - mumtoz she'r tuzilishini o'qitish kechimiga kreativ yondashuvni;
 - mumtoz she'r tuzilishini o'qitishning asoslari nimalardan iborat ekanligini;
 - mumtoz she'r tuzilishini o'qitish samaradorligiga erishishda professor-o'qituvchining talabalar bilan, talabalarning o'zaro bir-biri bilan sherikligini yo'lga qo'yishni;
 - mumtoz she'r tuzilishini o'qitishda talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning hal qiluvchi ahamiyatga egaligini;

- mumtoz she'r tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari, she'rshunoslik tarixi, aruz vaznining kvantitativ va kvalitatiflik xususiyatlari haqidagi bilimlarni amaliyotda qo'llay bilishni.

Ushbu modul tinglovchida quyidagi **ko'nikmalarni** shakllantirishga xizmat qiladi:

- she'r tuzilishi, she'r tuzilishining taraqqiyot bosqichlarini ajrata olish;
- aruzning nazariy asoslari haqida umumiy ma'lumotlarni bilish;
- aruzning kvantitativ va kvalitatiflik xususiyatlarini farqlay olish;
- mumtoz she'rning qaysi janrga mansubligi aniqlay olish;
- lirik janrdagi har qanday mumtoz asarni o'quv yoki ilmiy tahlilga torta olish;
- taqti' va uning qoidalari, bahrlar va ularning tarkibiy tuzilishi, bir xil asliy ruknlardan tashkil topgan bahrlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, turkiy she'riyatda faol qo'llanilgan ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib bahrlarida yozilgan she'rlarning taqtiyini belgilay olish;
- turli asliy ruknlardan tarkib topgan bahrlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini farqlay olish;
- mumtoz aruzshunoslik asoslari; baytli, bandli va bayt asosidagi bandli she'r shakllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, mumtoz qofiya turlarini bir-biridan ajrata olish.

Ushbu modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar tubandagi **malakalarni** egallashlari mo'ljallanadi:

- aruzda prosodic urg'u masalasini yoritish;
- aruz ilmini oliy ta'limda o'qitish bilan bog'liq muammolarni yecha olish;
- mumtoz qofiyani o'qitish masalalarini tahlil qilish;
- rukn va uning turlarini ajrata olish, raviyni aniqlash;
- mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad (qaydli) qofiyalarni aniqlash;
- istalgan bilim darajasiga ega auditoriya ahli bilan aloqaga kirisha bilish;

- adabiyot saboqlarida o'qitishning interfaol usullaridan foydalana bilish;
- adabiyot bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda muammoli ta'lim usulini qo'llay olish;
- adabiyotga doir fanlar yuzasidan talabalar bilimni xolis baholay bilish;
- adabiyot saboqlarini talabalar uchun qiziqarli mashg'ulotlarga aylantira olish.

Modulni to'liq o'zlashtirish natijasida tinglovchi professor-o'qituvchilar badiiy tahlil kompetentligiga ega bo'ladilar. Unda tekshirilayotgan mumtoz she'riy janrning asosiy xususiyatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish yo'llarini egallaydilar.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga innovatsion yondashuv” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Moduldagi ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o'qitishning zamonaviy usullari, badiiy adabiyot va estetika ilmidagi eng so'nggi yutuqlardan foydalanish ko'zda tutilgan:

- ma'ruza shaklidagi saboqlarda milliy va chet el adabiyot metodikasi fanlaridagi so'nggi yutuqlardan foydalanish;
- masofadan o'qitish orqali tinglovchilarning mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga doir yangiliklarni mustaqil egallab olishlariga imkon yaratish;
- amaliy mashg'ulotlarda ta'limning fikriy hujum, kichik guruhlar bilan ishlash singari interfaol usullarini qo'llash ko'zda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga innovatsion yondashuv” moduli o'quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barchasi bilan uzviy bog'langan.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar "Aruz va mumtoz poetika" mutaxassislik fanini o'qitishning eng ilg'or yo'llarini egallaydilar, ularda har qanday ilmiy darajadagi auditoriya ahli bilan adabiy yaratishlar to'g'risida fikr bildirish ko'nikmasi shakllantiriladi. Natijada, fanni o'qitish samaradorligini sezilarli oshiradi.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklamasi			
		Soatlari			
		Jami	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot
1.	Sharq mumtoz adabiyotida she'r tuzilishi. Mumtoz she'r nav'lari	2	2		
2.	Oliy ta'limda aruz tizimini o'qitish muammolari. Aruzning nazariy asoslari haqida umumiy ma'lumot	2	2		
3.	Mumtoz qofiyani o'qitish masalalari. Mumtoz qofiya asoslari, uning tarkibiy qismlari	2	2		
4.	Aruzda vasl, imola, taslim tushunchalari	2		2	

5.	Rukn va uning turlari. Bahrlar tasnifi	2		2	
6.	Mumtoz qofiyani aniqlash usullari	2		2	
7.	Qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlash va ularni nomlash tamoyillari	2		2	
Jami		14	6	8	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Sharq mumtoz adabiyotida she'r tuzilishi. Mumtoz she'r nav'lari

She'r tuzilishi. She'r tuzilishining taraqqiyot bosqichlari. Ibtidoiy shakllanish bosqichi. Sinkretizm davri (musiqa, raqs va she'r uyg'unligi). Alohida san'at turi sifatidagi mustaqil ajralish davri. Keng qo'llanilish natijasidagi to'la shakllanish davri va mazkur to'la shakllanish bosqichini ilmiy idrok etgan she'r tuzilishi nazariyasining kelib chiqishi. She'r tuzilishining zamonaviy rivojlanish tamoyillarini tahlil etish bosqichlari. G'arb va Sharq adabiyotida she'r tuzilishiga doir qarashlar.

Mumtoz she'r nav'lari. Manbalarda she'r nav'lariga doir qarashlar. She'r shakllarining tasnifi. Baytli, bandli, bayt asosidagi bandli she'r shakllari. Mumtoz janrlarni bir-biridan farqlash tamoyillari.

2-mavzu. Oliy ta'limda aruz tizimini o'qitish muammolari. Aruzning nazariy asoslari haqida umumiy ma'lumot

O'zbek adabiyotida she'riy tizimlar. Barmoq, aruz hamda erkin she'r tizimlari. Aruzning paydo bo'lishi. Nazariy asoslari. Hijolar va ularning turlari. Aruzda rukn tushunchasi. Asliy va tarmoq ruknlar. Bahrlar, ularning tasnifi. Mumtoz aruzshunoslik asoslari. Juzv, zihof, furu', doira.

Aruzning kvantitativ va kvalitativlik xususiyatlari. Aruzda prosodik urg'u masalasi. Aruz ilmini oliy ta'limda o'qitish bilan bog'liq muammolar.

3-mavzu. Mumtoz qofiyani o'qitish masalalari. Mumtoz qofiya asoslari, uning tarkibiy qismlari

Ilmi qofiya. Uning vujudga kelish omillari. Ilmi aruz va ilmi qofiya munosabati. Mumtoz qofiyani vujudga keltiruvchi harflar. Mumtoz qofiya turlari. O'zak tarkibiga ko'ra qofiya turlari. Mujarrad qofiya. Bunday qofiya turida raviy harfi cho'ziq unlidan iborat bo'lishi yoki raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin *tavjih* – qisqa unli kelishi. *Murdaf qofiya*. Bunday qofiya turida raviy harfidan oldin cho'ziq unlilardan biri – *ridfi asliy*, ba'zan esa *ridfi zoyid* kelishi. *Muqayyad (qaydli) qofiya*. Bunday qofiya turida o'zak tarkibida qisqa unlidan so'ng qator undosh kelishi. Bunda qisqa unli *hazv*, raviydan oldin to'rgan undosh *qayd* deb atalishi. *Muassas qofiya*. Bunday qofiya turida cho'ziq “o” unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli kelishi. Cho'ziq “o” unlisi *ta'sis* deb, undan keyingi undosh *daxil* deb, raviy oldidagi qisqa unli esa *ishbo'* deb atalishi. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlari. Muqayyad va mutlaq qofiyalar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-mavzu. Aruzda vasl, imola, taslim tushunchalari

Baytdagi bir so'zning o'zidan keyin kelayotgan unli harf bilan boshlangan so'zga qo'shib o'qilishi orqali vasl hodisasining yuzaga kelishi. Bu hodisaning bir so'z tarkibida sodir bo'lmasligi. Ushbu hodisa yuzaga kelishi uchun birinchi so'z undosh bilan tugab, undan keyin kelayotgan so'z unli bilan boshlanishi kerakligi. Imola hodisasining vazn talabi bilan o'ta cho'ziq hijolar tarkibidagi unlilarni hamda qisqa talaffuz qilinuvchi unlilarni sun'iy tarzda cho'zib o'qishni ifodalashi. She'rshunoslikda imolaning ikki turi farqlanishi: *imolai maqbul* (yoqimli imola) va *imolai maqduh* (siniq yoki yoqimli bo'lmagan imola). Taslim arabcha “yemirish” ma'nosini bildirib, vazn talabi bilan baytdagi so'zlarning biror harfini tushurish ekanligi. Taslim ko'p hollarda juft undoshlardan birining,

“vov” (“v”) undoshining, yoy (“y”) harfi va b.larning matn tarkibidan tushirib qoldirilishi hisobiga yuz berishi.

2-mavzu. Rukn va uning turlari. Bahrlar tasnifi

Aruz tizimida rukn tushunchasi. Ma'lum bir hijolarning birikuvidan hosil bo'ladigan ritmik bo'lak rukn ekanligi. Ruknlar asliy va tarmoq ruknlarga bo'linishi. Asliy ruknlar o'zgarishga uchramagan, to'liq holatdagi ritmik bo'laklar bo'lsa, tarmoq ruknlar asliy ruknlardagi hijolarni muayyan tarzda o'zgartirish hisobiga vujudga kelishi. Ruknlarning muayyan tarzda takrorlanib kelishi natijasida bahrlarning vujudga kelishi. Aruzshunoslikda bahrlar miqdori. Bahrlar tasnifi: muttafiq ul arkon bahrlarining bir xil asliy ruknlardan tarkib topishi. Muxtalif ul arkon bahrlarining turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan hosil bo'lishi.

3-mavzu. Mumtoz qofiyani aniqlash usullari

Mumtoz she'rning qaysi janrga mansubligi aniqlangach, undagi ohangdosh so'zlarni belgilash zarurligi. Raviyni aniqlash. Raviydan avval keluvchi harflarga qarab qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlarini topib olish. Mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad (qaydli) qofiyalarni aniqlash usullari. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlash va ularni nomlash tamoyillari.

4-mavzu. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlash va ularni nomlash tamoyillari

Mumtoz she'rning qaysi janrga mansubligi aniqlangach, undagi ohangdosh so'zlarni belgilash zarurligi. Raviyni aniqlash. Raviydan avval keluvchi harflarga qarab qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlarini topib olish.

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Ruboiy vaznlarini aniqlash usullari. Mumtoz she'rni tahlil qilish usullar

Bugungi oliy filologik ta'lim uchun talabalarga faqat adabiy-nazariy bilim berish yetarli emas. Ularda har qanday mumtoz janrga ilmiy yondashish malakasi shakllantirilishi kerak. Jumladan, oliy ta'limda ruboiy vaznlarini o'qitishga ham alohida soat ajratilganki, bu aruz tizimidagi nisbatan murakkab bo'lgan ruboiy vaznlarini sodda va qulay uslubda o'qitish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

Ruboiy vaznlari hazaj bahrida yaratiladi. Hazaj bahrining axrab shajarasi 12 vaznni, axram shajarasi yana 12 vaznni o'z ichiga oladi va ushbu jami 24 vazn ruboiy vaznlari hisoblanadi. Ruboiyning she'riy o'lchovi bilan bog'liq muhim xususiyat shundaki, boshqa she'riy janrlardan farqli o'laroq, uning to'rt misrasi mazkur shajaralarga mansub 4 xil vaznda yozilishi mumkin.

Ruboiy vaznlarini o'rganish uchun dastavval Hazaj bahrining asliy rukni hisoblangan **mafoiylun** ruknidan hosil bo'luvchi hamda ruboiy vaznlarini shakllantiruvchi asliy va tarmoq ruknlar (jami 10 ta) ni o'zlashtirish lozim bo'ladi.

Ruboiy vaznining nomini aniqlash uchun esa avvalo keltirilgan ruboiy misrasining qaysi shajara vaznlarida bitilganini belgilab olish lozim. Buning uchun oldingi uch hijo alohida rukn qilib ajratiladi va shu asosda uning axrab yoki axramda ekanligi belgilanadi. Ruboiy vaznlari, aruz tizimidagi boshqa vaznlardan farqli o'laroq bayt asosida emas, balki misra asosida paydo bo'ladi va bir misra odatda, murabba' (to'rt rukn) shaklida keladi. Misradagi to'rtinchi rukn bevosita uchinchi ruknga bog'liq bo'ladi, ya'ni uchinchi ruknning oxirgi hijosi cho'ziq bo'lsa, to'rtinchi rukn ham cho'ziq hijo bilan, agar oxirgi hijo qisqa bo'lsa, so'nggi rukn ham qisqa hijo bilan boshlanadi.

“Mumtoz she'rni tahlil qilish usullari” mustaqil ta'limning eng samarali ko'rinishlaridan biridir. Bunda Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi muayyan lirik janrlar tinglovchilar e'tiboriga havola qilinadi. Har bir tinglovchi ushbu janr yuzasidan o'z mustaqil fikrini qog'ozga tushiradi. O'z qarashlariga tayangan holda fikr aytadilar, o'zgalarning yondashuvlariga munosabat bildiradilar. Havola qilingan mumtoz she'rning janr xususiyatlari, vazn ko'rsatkichlari, qofiya turlari haqida ma'lumot beradilar. Shu tariqa mumtoz she'rning ilmiy-filologik tahlilini amalga oshirish bo'yicha tajribaga ega bo'ladilar.

O'QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o'qitish;
- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ta'lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, undaadabiy ta'limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo'yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o'z fikrini asoslashga o'rgatish.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI



“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- kuchli tomonlari
W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to'siqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
W	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg'ular tahlilini to'la amalga oshirib bo'lmaydi.
O	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o'tkaziladi.
T	To'siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish

mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

Xulosa:**“Keys-stadi” metodi**

“Keys-stadi” - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va

yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kichikroq badiiy (she'riy) matnni tahlil qilish uchun ko'rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
 - Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

– “FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	- fikringizni bayon eting
S	- fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	- ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna:Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig'ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar,

muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna: Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha soʻz boʻlib, tarkib maʼnosini anglatadi.
- B. Inglizcha soʻz boʻlib, tahlil maʼnosini anglatadi.
- C. Yunoncha soʻz boʻlib, talqin degan maʼnoni anglatadi.
- D. Lotincha soʻz boʻlib, badiiy asar matnini anglatadi.



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lugʻaviy maʼnosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yoʻnalishi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi”
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yoʻnalishi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lugʻaviy maʼno beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo'yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo'lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko'ra farqlash	
Adabiy janr	O'z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo'lgan mustaqil shakliy	

	ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o'rganuvchi soha	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o'ziga xosligi	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.


“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Ifoda shakllari bo'yicha (she'riy va nasriy nutq.



“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:


1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni "to'g'ri javob" bo'limiga yozish so'raladi.
4. "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa "0", mos kelsa "1" ball qo'yish so'raladi. Shundan so'ng "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Struktural tahlil ketma–ketligini aniqlash. O'zingizni tekshirib ko'ring!


Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o'z yozuvida o'qish tajribasi					
Matnni o'z tilida o'qib tushunish (lug'at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					


Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					
--	--	--	--	--	--



Grafik organayzer talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:





III. NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI



1-MAVZU:**SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA SHE'R TUZILISHI. MUMTOZ
SHE'R NAV'LARI****REJA:**

- 1. She'r tuzilishi. She'r tuzilishining taraqqiyot bosqichlari**
- 2. G'arb va Sharq adabiyotshunosligida she'r tuzilishi**
- 3. Mumtoz she'r nav'lari. Manbalarda she'r nav'lariga doir qarashlar**
- 4. She'r shakllarining tasnifi**

Kalit so'zlar: She'r tuzilishi, metrika, qofiya, strofika, lirik janr, ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi badi', she'r nav'lari, baytli shakllar, musammatlar.

Texnik jihozlar va ko'rgazmali vositalar: Ma'ruza bo'yicha tayyorlangan slaydlar, nashr etilgan manbalar va ilmiy adabiyotlar.

Ma'ruzada qo'llanilgan metodika (ped.texnologiya): Aqliy hujum, BBB metodlari.

Mavzuning dolzarbligi:

So'nggi yillarda oliy ta'limning filologik yo'nalishlarida mumtoz poetika, xususan, aruz she'r tizimini o'qitishga alohida e'tibor qaratilayotganligi e'tiborga molik jihatlardandir, zero, o'zbek mumtoz adabiyotining ajralmas qismi sanalgan she'rshunoslik, xususan, aruz tizimini chuqur bilmaslik mumtoz janrlarda yaratilgan badiiy namunalar mohiyatini to'la anglashda murakkabliklar tug'diradi. Shu bois mumtoz vazn hisoblanmish aruzni qulay uslubda o'rganish va o'rgatish bugungi kun ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Mavzuning amaliyot bilan bog'liqligi:

Bakalavriat yo'nalishining quyi bosqichlarida joriy etilgan "Aruz va mumtoz poetikaga kirish", "Klassik she'r o'lchovi" kabi fanlarni o'qitishda ushbu mavzu muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. She'r tuzilishining taraqqiyot bosqichlarini sanang.
2. G'arb va Sharq adabiyotidagi she'r tuzilishi haqida ma'lumot bering.
3. Sizningcha, mumtoz she'r shakllarini yana qanday tasniflash mumkin?

Ma'lumki, she'rshunoslik qadimgi Hindistonda eramizgacha bo'lgan V asrlarda, Yunonistonda esa eramizdan avvalgi IV-III asrlarda vujudga kelgan. Xususan, Hindistonda she'rshunoslik "Veda" qanday usul va shaklda yozilganligini tushuntirish maqsadida yaratilgan metrik tafsirlar, ya'ni sharhlar tarzida shakllangan. She'rshunoslik uzoq vaqt normativ ilm sifatida rivojlanib kelgan, ya'ni uning bosh maqsadi she'rni qanday yozish kerakligini o'rgatuvchi predmet bo'lgan.

She'rshunoslik ilmining terminlari va asosiy tushunchalari adabiyotlar tarixida birbiridan o'zlashtirish orqali rivojlangan, masalan, lotin she'rshunosligi yunon she'rshunosligi tushunchalarini, fors va o'zbek aruz nazariyalari esa arab aruzi nazariy qonun-qoidalarini, istiloh va tushunchalarini o'zlashtirgan. Xuddi shuningdek, zamonaviy yevropa she'rshunosligi o'zining asosiy tamoyillarini lotin she'rshunosligidan o'zlashtirgan.

She'rshunoslik tuzilish jihatidan metrika, qofiya va strofikaga bo'linadi. "She'r tuzilishi – she'riy nutqning tovush va kompozision jihatdan tashkil qilinish san'atidir"¹.

G.To'ychievaning fikricha, she'r tuzilishi badiiy adabiyot kabi o'z taraqqiyoti davrida o'ziga xos evolyusion jarayonlarni boshidan kechirgan bo'lib, ular ichida (1) ibtidoiy shakllanish bosqichi, (2) sinkretizm davri – (musiqqa, raqs va she'r), (3) alohida san'at turi sifatidagi mustaqil ajralish davri, (4) keng qo'llanilish natijasidagi to'la shakllanish davri va mazkur to'la shakllanish bosqichini ilmiy idrok etgan (5) she'r tuzilishi nazariyasining kelib

¹ Краская литературная энциклопедия (КЛЭ). - М., 1972. Т. 7. - С. 199.

chiqishi, va nihoyat, (6) she'r tuzilishining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil etish bosqichlariga bo'linadi².

1. *Ibtidoiy shakllanish bosqichi.* Bu davrda ibtidoiy odam nutqining paydo bo'lishi hamda ana shu nutq tarkibida o'ziga xos his-hayajonli, emotiv, ekspressiv so'zlar va hayqiriqlarning turli ehtirolarni ifoda etish uchun ishlatila boshlanishi, hayqiriqlar tarkibida hujum, himoya, quvonch, baxt, tahdid, g'alaba, g'urur, sevinch kabi o'nlab tushunchalarning shakllanishi va adekvat tarzda ifodalanishi bilan bog'liq bo'lgan davrdir.

2. *Sinkretizm davri* – san'atning ilk ibtidoiy turlari bo'lgan musiqa, raqs va she'rning o'zaro chirmashgan va yagona shaklda qorishib yashagan davri bo'lib, bu davrda qo'shiq tarkibida aytish uchun maxsus yaratilgan tartibli so'zlar majmualari vujudga kela boshlaydi. Ibtidoiy qo'shiqlar va mazkur qo'shiqlar uchun mo'ljallangan matnlar tematik jihatidan shakllanadi. Ritual raqslar tarkibidagi hayqiriqlar, marosim qo'shiqlari, davra rechitativlari ibtidoiy qabilalar hayoti haqidagi raqsda ko'rsatilayotgan vaziyatlarni mazmunan tushuntirishga qaratilgan maxsus nutq parchalarining shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Bu davrda ibtidoiy she'r sin.kretik san'at tarkibida o'z she'r tuzilishini sayqallab boradi. Primitiv she'r shakllari paydo bo'lib, ular qonuniyatga aylanish sari rivojlana boshlaydi.

3. *Alohida san'at turi sifatidagi mustaqil ajralish davri* – Mazkur davr yozuvning paydo bo'lishi, natijada she'r, yoki poeziyaning musiqa va raqs san'atlari sinkretizmidan ajralib chiqib keta olganligi bilan bog'liqdir. Yozuvning paydo bo'lishi she'rning harflar yordamida saqlanishi (fiksasiya) va ifodalanishi uchun imkon berdi. Ana shunday eng qadimgi yozuvlarda saqlangan she'riy yodgorliklar, artefaktlarni qabrtoshlar yodnomalarida

²Тўйчиева Г. Ислом даври шеърлятида аруз тизими ва унинг эволюцион тараққиёти(Dsc) дисс. автор. – Т., 2018. – Б. 33-37.

ko'rish mumkin. Bu davrning belgilaridan biri she'rlarning maxsus yozilishi va yozuvda qayd etilishi bilan bog'liqdir. Yozuvning she'r tizimini shakllantirishdagi ijobiy ta'siri ham she'rni qayd etish uchun imkon yaratilganligi vositasida she'r tizimini ham aynan qayd etish imkoniyati vujudga keltirilganligi bilan belgilanadi. "Poeziya prozadan ajralib chiqib, o'z taqdirini belgilashi lozim edi: o'z asosini ritmda deb bilib, ana shu ritmning xarakterini, ya'ni she'r tizimini belgilib olishi lozim edi"³.

4. *Keng qo'llanilish natijasidagi to'la shakllanish davri* – Tabiiyki, she'r tuzilishi o'z rivojlanishi bosqichida, biron bir davrda, o'zida shakllangan qonuniyatlar tizimining muayyan tartibini ishlab chiqadi. Bu jarayon, bir tomondan, stixiyali tarzda minglab shoirlar ijodiy tajribasi orqali o'zini mukammallik va tugallanganlik sari oldinga siljitsa, boshqa tarafdin, keyinchalik ana shu stixiyali qonuniyat bir necha bor anglangan, keyinchalik yana qayta tafakkur qilingan holda, qaytalanagan qonuniyat darajasi ko'tarilgan. She'r tizimi normalarining yaratilishi va anglanishi shoirlar ijodida maxsus qaytalanishi, shoirlar ijodi uchun qonuniyat va sxemalar darajasiga ko'tarilishi mana shu bosqichning so'nggi marrasi hisoblanadi. Bu davrda shoirlar uchun she'r tuzilishi qonuniyatlari she'r yozishning asosiy qoidasiga aylana boshlaydi. Xitoy, hind va arab johiliya madaniyati tarixida "she'r" tushunchasining shakllanishi anchayin avvalroq kechadi. Xitoy va hindlarga zamonaviy "she'r" tushunchasiga monand bo'lgan so'zlar eramizdan avval yuzaga keladi. Arablarda esa islomgacha bo'lgan johiliya davri adabiyotida aniq anglangan "she'r" tushunchasi bo'lgan hamda ana shu tushuncha anglatgan aniq belgilar majmuasi mavjud bo'lgan. Xitoy adabiyotida she'rga ekvivalent tushuncha "shi" so'ziga muqobil keladi. Qadimgi xitoy adabiyotining arxaik davriga tegishli bo'lgan ilk she'riy asar

³Гаспаров М.Л. Очерк истории русского стиха. Метрика. Ритмика. Рифма. Строфика. - М.: Наука, 1984. - С. 21.

“Shiszin” eramizdan avvalgi XII asrda yaratilib, so‘ng eramizdan avvalgi II asrda qayta tahrir orqali bizning davrimizgacha uning parchalari yetib keladi. “Shiszin” qofiya, strofa va misralarga bo‘lingan badiiy so‘z san'atining ilk namunalaridandir. “Shi” kuylab ijro etilgan, ammo “shi” yaxlit qo‘shiq ma'nosini bermagan. “Shi” tushunchasida kuylash uchun yozilgan she'r degan mazmun mavjud bo‘lgan. Hindlarda esa “kavya” – poeziya so‘zi she'r tushunchasiga to‘g‘ri keladi. “She'r” degan tushunchaning tilga kirib kelib, o‘z semantik mazmuniga ega bo‘lishi, eng avvalo, she'r texnikasi, yoki she'r tizimi tushunchasi bilan bog‘liq hodisa edi. She'r, uning she'riy tuzilishi aniq belgilangan vaqtdan boshlab, she'rga, ya'ni poetik unsurga aylanadi.

5. *To‘la shakllanish bosqichini ilmiy idrok etish va she'r tuzilishi nazariyasining kelib chiqishi* – She'r tuzilishining to‘la shakllanganlik bosqichi keyingi davrning yuzaga kelishini talab etadi. Bu davrda she'r yozish qonunqoidalari to‘g‘risidagi risolalar yaratila boshlanadi. Bu davr she'r tuzilishi va she'r ijod qilish normalari haqidagi ilk nazariyalarning yaratilishi bilan belgilanadi. Mazkur davr ilmiga xos bo‘lgan spesifik xususiyatlar sxolastiklik, qat'iy normalar, formalizm va qoidaparastlikdan iboratdir. Ammo shunga qaramay, bu davr she'rning prozadan batamom ajralib, yangi poetik shakllarning rivojlanishi uchun imkon yaratdi.

M.L.Gasparov, “Biz rus she'ri tarixiy bayonini XVII asrdan boshlaymiz. Albatta bu narsa mazkur asrgacha ruslarda she'r bo‘lmagan ekanda, degan fikrni anglatmaydi. Ular bo‘lgan, ammo ular mustaqil holdagi “she'r” tushunchasi darajasiga ko‘tarilmagan edi. Bizning tasavvurimizdagi “nazm-nasr” qaramaqarshiligi qadimgi ruslar uchun anglashilarli emas edi”, deydi⁴⁵. Ruslarda aynan shu asrda “virshi” – “she'r”, mazkur davrgacha noma'lum bo‘lgan yangi so‘z – polyak tili orqali lotin tilidan kirib,

⁴ Гаспаров М.Л. Очерк истории русского стиха. Метрика. Ритмика. Рифма. Строфика. - М.:Наука,

⁵. – С.19

o'zlashtiriladi. Shu bois, "she'r" tushunchasining til rivojida individuallashuvi she'r tizimini to'la shakllanib yetilganligi oqibatidir.

6. *She'r tuzilishining tarixiy va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil etish* – bu davr she'r tuzilishini ilmiy idrok etishdagi so'nggi ikki yuz ichida shakllangan nazariy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Bu anchayin murakkab va serqirra tarixiy bosqich bo'lib, unda she'r mohiyatini o'rganishdagi qo'yilgan muammolar va ularning yechimi masalalarida keskin o'zgarishlar qilindi va bu jarayon to shu bugun davom etmoqda. She'rshunoslik metodologiyasi tamoman yangitdan qurildi, she'rshunoslik o'z tarkibiga adabiy matnning tadqiq etishning barcha zamonaviy yangi usullari va uslublari qamrab oldi. Adabiy va she'riy matnning struktural, matematik o'rganish, she'r tuzilishiga asos bo'lgan so'z mohiyatini lingvistik, stilistik, fonetik, emotiv, lingvopoetik va ekspressiv asoslarni belgilash, ana shu ilmiy tahlil jarayonlariga yangi texnik tekshirish imkoniyatlarini jalb qilish she'rshunoslik rivojida keskin o'zgarishlar qilish imkoniyatini yaratdi. Agar bundan 30-40 yil avval she'r tizimini, uning tovush qurilishi nuqtai nazaridan eksperimental o'rganish yangi metodlardan bo'lsa, hozir she'r tizimini kompyuter texnologiyalari asosida o'rganish metodlari maxsus dasturlar asosida ishlab chiqilmoqda.

Arastuning "Poetika" asariga Forobiy tomonidan sharh yozulgach, uning izdoshi Ibn Sino o'zining musiqa va she'riyatga doir asarlarida she'rga "mavzuni muxayyali muqaffo" deb ta'rif berdi va shu tariqa mumtoz poetikaning asosan she'riyat masalalari bilan ish ko'ruvchi tarmog'i – "ilmolar uchligi" (ilmohi segona) vujudga keldi. Bu ilm uchta mustaqil sohani o'z ichiga oldi. Bular quyidagilardir:

1) **ilmi aruz** – she'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalari haqida bahs yurituvchi soha;

2) **ilmi qofiya** – qofiya qonuniyatlari va turlari haqida ma'lumot beruvchi soha;

3) **ilmi badi'** – nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha.

Mumtoz poetikaga doir asarlar dastavval ilmi badi' doirasida paydo bo'lgan. Bizgacha yetib kelgan va arab tilida yaratilgan ilmi badi'ga doir dastlabki asarlar sifatida Nasr binni Hasanning *“Mahosin ul-kalom”* (IX asr), ibn Mu'tazzning *“Kitob ul-badi'”* (IX–X asrlar), Qudama ibn Ja'farning *“Naqd ush-she'r”* (X asr) asarlarini keltirish mumkin.

Arab olimlari yaratgan ushbu asarlar Markaziy Osiyo va Xurosonda yashab faoliyat yuritgan ko'plab olimlar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi va ular ham bu sohada ko'plab risolalar yaratdilar. Mumtoz poetikaga doir dastlabki forsiy asar

XI asrda yuzaga kelgan. Bu Muhammad binni Umar Roduyoniy qalamiga mansub bo'lib, *“Tarjumon ul-balog'a”* deb ataladi. Roduyoniy o'z kitobini arab olimi Nasr binni Hasanning *“Mahosin ul-kalom”* (33 badiiy san'at) nomli asariga suyangan holda yaratgan va unda 77 ta san'atni keltirgan. XI–XII asrlarda Ahmad binni Muhammad Manshuriy Samarqandiy *talavvun* san'ati haqida risola (*“Kanz ulg'aroyib”*), Abumuhammad binni Muhammad Rashidiy Samarqandiy *“Ziynatnoma”*, Rashididdin Vatvot (vaf. 1182-1183) *“Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r”* (60 dan ortiq badiiy san'at) nomli asarlar yaratganlar.

Tarixiy poetikaning yuqoridagi uch tarmog'ini o'zida mujassamlashtirgan yirik tadqiqot XIII asrning atoqli olimi Shamsiddin Muhammad binni Qays Roziyning *“Al-Mo'jam fi ma'oyir-ul-ash'or-ul-Ajam”* nomli mashhur asaridir. Asarni o'sha paytgacha poetika masalalari bo'yicha qilingan barcha ishlarning eng mukammali deb aytish mumkin. Chunki muallif bu asarida mumtoz poetikaning har uchala bo'limi – aruz,

qofiya va ilmi badi' haqida mukammal ma'lumot beradi, she'r va shoirlik, badiiy asarda shakl va mazmunning munosabati, tanqidning adabiy jarayondagi roli va vazifalari haqida mulohazalar yuritadi.

Mashhur shoir Xusrav Dehlaviy ham nasr qoidalari haqida ikki jildidan iborat kitob yozib, unda yuzlab badiiy san'atlar haqida so'z yuritgan. Vahid Tabriziyning "Jam'i muxtasar" (XVI asr) asarida esa aruz, qofiya bilan bir qatorda o'nlab she'riy san'atlar ham keltirilgan.

Nizomiddin Ahmad ibni Muhammad Solih Siddiqiy Husayniyning "Majma' us-sanoyi'" asari ham butunlay ilmi badi'ga bag'ishlangan bo'lib, 80 ta she'riy san'atni o'z ichiga oladi. Qabulmuhammad qalamiga mansub "Haft Qulzum" asarining yettinchi bo'limida ham badiiy san'atlar haqida fikr yuritilgan.

Turkiy poetikaga doir bizgacha yetib kelgan ilk asar – Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" (1436) asari bo'lib, u **she'r nav'lari, ilmi qofiya, ilmi badi', ilmi aruz** kabi qismlarni o'z ichiga oladi (5-qism – muammo haqidagi bo'lim bizgacha etib kelmagan). Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", "Risolai muammo", "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Xamsa" dostonlarining kirish qismlarida, Boburning "Risolai aruz" asarlarida ham mumtoz poetika masalalari yoritilganligini ko'ramiz.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida adabiy tur tushunchasi o'ziga xos ifoda shakllaridan iborat bo'lgan. Bunda adabiy asarlar asosan nazm va nasr yo'nalishlariga bog'liq holda tahlil qilingan. Nazm va unga mansub janrlar badiiy asarlarning asosiy ifoda shakli bo'lib, ularga nasrdan ko'ra "poyasi biyikrak" (martabasi yuksakroq) deb qaralgan.

Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida nazm va nasrga badiiy nutq hamda mumtoz adabiy asarlarning ikki asosiy ifoda shakli sifatida qaralar ekan, muallif "istisvob bobinda murattab" (to'g'rilik bobila

tartibli) nutqni nazm va “avroq visoqinda parishon” (varaqlar maydonida sochilgan) nutqni nasr deb ataydi. Uning fikricha, agar ijodkor o'z fikrini nazmda bayon qilsa, oddiy ilmlardan bexabar nodon kishi unga hujum qilishga va buzishga qodir bo'la olmaydi. Qisqa qilib aytganda, Shayx Ahmad Taroziy qat'iy intizomga asoslangan nazmni ma'rifat va hikmat muhofazasi uchun muhim ifoda shakli deb hisoblaydi.

Navoiy ham o'z asarlarida nazm va nasrga ta'rif berar ekan, nazmni gulshandagi gullarning saf tortib, ochilib turishiga, nasrni esa gullarning yerda sochilib to'kilib yotishiga o'xshatadi:

Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i,

Nasr qaro yerga sochilmog'lig'i.

(“Hayrat ul-abror”)

Turkiy poetikaga doir ilk manba – “Funun ul-balog'a”da 10 ta she'r nav'i:

qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarji', musammat, mustazod, mutatavval, fard haqida ma'lumot berilib, ular *tavhid, na't, munojot, manoqib* (manqabat), *madh* (mudham, tamadduh), *marsiya, hajv* (mazammat), *mutoyiba* mavzularida bo'lishi aytiladi.

Mumtoz she'r shakllari tarkibiy tuzilishiga ko'ra **baytli, bandli** hamda **bayt asosidagi bandli** she'r shakllariga bo'linadi. Baytli she'r shakllarining asosini bayt

(arabcha “uy”) tashkil qiladi. Ularga g'azal, qasida, mustazod, qit'a, ruboiy, tuyuq, fard, muammo, lug'z (chiston), ta'rix va boshqalar kiradi. Bandli she'r shakllari ***musammat*** (ar. “*marvarid donalarini ipga termoq*”) lar deb atalib, musammat deganda, **musallas, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mustasne', muashshar** shakllarining umumiy nomi anglashiladi. Musammat she'r bandlarining baytdan tashqari turlarini anglatuvchi umumiy atama hisoblanadi.

Bayt asosidagi bandli she'r shakllariga **masnaviy**, **tarji'band**, **tarkibband** va **soqiynoma** kiradi. Bulardan dastlabki uchta shakliy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Soqiynomaning esa janr xususiyatlarini belgilashda mazmun yetakchilik qilsa-da, uning masnaviy usulida qofiyalanishi mazkur janrni ham ushbu guruhga kiritishga asos bo'ladi. Ushbu janrlar tarkibiga ko'ra ham bayt (g'azal asosidagi qofiyalanish tizimini o'z ichiga olganligi yoki baytlardan iborat bo'lganligi uchun), ham band (tarkiban davomiylikni taqozo qilganligi va bandlarni vujudga keltirganligi uchun)ga asoslangan she'r shakllari hisoblanadi, shu jihatdan musammatlardan farq qiladi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

Asosiy adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2022.
2. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
4. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 120 б.
5. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърятининг жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 184 б.
6. Тўйчиева Г. Ислом даври шеърятининг аруз тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол. фан. бўйича фан доктори (Dsc) дисс. автор. – Т., 2018. 264 б.
7. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1990. – 240 б.

Qo'shimcha adabiyotlar:

8. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сироҷиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.
9. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013.– 408 б.
10. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (XXVв.). – М.: Наука, 1989.

Internet saytlari:

1. www.ziyo-net.uz
2. www.edu.uz
3. www.litera.ru.
4. www.Philologs.narod.ru.

2-MAVZU:

OLIIY TA'LIMDA ARUZ TIZIMINI O'QITISH MUAMMOLARI. ARUZNING NAZARIY ASOSLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

REJA:

1. *O'zbek adabiyotida she'riy tizimlar*
2. *Aruzning paydo bo'lishi. Nazariy asoslari: Hijolar va ularning turlari*
3. *Aruzda rukn tushunchasi. Asliy va tarmoq ruknlar*
4. *Bahrlar, ularning tasnifi*
5. *Aruz ilmini oliy ta'limda o'qitish bilan bog'liq muammolar*

Kalit so'zlar: She'r tuzilishi, metrika, qofiya, strofika, lirik janr, ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi badi', she'r nav'lari, baytli shakllar, musammatlar.

Texnik jihozlar va ko'rgazmali vositalar: Ma'ruza bo'yicha tayyorlangan slaydlar, nashr etilgan manbalar va ilmiy adabiyotlar.

Ma'ruzada qo'llanilgan metodika (ped.texnologiya): Grafik organayzerlar, aqliy hujum, BBB metodlari.

Mavzuning dolzarbligi: Xalqimizning ma'naviy negizi hisoblanmish mumtoz adabiyotni o'rganish, yoshlarda unga nisbatan chuqur ehtirom va qiziqish uyg'otish, ularni bunga jalb qilish kun tartibidagi dolzarb masalalardandir.

Mavzuning amaliyot bilan bog'liqligi:

1. Ushbu modul oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilariga mumtoz she'rshunoslik, xususan aruz tizimini o'qitishda yangicha yondashuv yo'llari borasida tushuncha beradi.
2. Oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari o'zlari ta'lim berayotgan filologik sohani aniq bir tizim sifatida anglashi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Aruz she'riy tizimining boshqa she'riy tizimlardan farqlanib turuvchi jihatlarini ayting.
2. Xalil ibn Ahmadning aruzshunoslikdagi xizmati nimalardan iborat?
3. Oliy ta'limda aruz tizimini o'qitishda qanday usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz?

Ma'lumki, she'r ohang jihatidan ma'lum bir qolipga solingan, ijodkorning histuyg'ulari, ichki kechinmalari ifodasi sifatida vujudga kelgan ritmik nutqdir.

Nutqning bu tarzda qolipga solinishi *she'riy vazn* yoki she'riy tizim deb ataladi. Vazn nutqni o'lchash, guruhlash va muayyan tizimga solishga xizmat qiladi, uning musiqiyligi va ohangdorligini oshiradi. O'zbek she'riyatida asosan uchta: *barmoq*, *aruz* va *erkin* vaznlar qo'llanilib kelgan.

Har bir millat adabiyotidagi she'riy vaznlar o'sha xalq tilining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shu ma'noda o'zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlariga eng ko'p mos keluvchi she'riy tizim milliy vaznimiz hisoblangan *barmoq* vaznidir. Barmoq vazni misralardagi bo'g'inlar

sonining bir xil miqdorda takrorlanishi va guruhlanishiga asoslanadi. Bu tizimda bo'g'inlarning sifati, ochiq yoki yopiqligi muhim emas.

O'zbek she'riyatiga XX asrda kirib kelgan *erkin* vazn esa bo'g'inlar miqdorining turli-tumanligi, qofiyalanish va bandlarda erkinlikka asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Turkiy she'riyatga arab va fors adabiyoti orqali kirib kelgan *aruz* tizimida bo'g'inlarning miqdoridan tashqari qat'iy sifati: cho'ziq va qisqaligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Arab she'riyati dastavval ko'chmanchi, tuya boqish bilan shug'ullanuvchi arab qabilalari – *badaviylarda* vujudga kelgan. Arab tuyachilari tuyani tezlatish uchun maxsus qo'shiqlar kuylaganlar va bu qo'shiqlar arab xalqlari orasida keng tarqalgan.

VIII asrga kelib arab olimlari orasida she'riyat va xalq og'zaki ijodi orasidagi munosabatni o'rganish, ularning muayyan qonuniyatlarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi. Bu vazifa haqli ravishda «arab filologiyasining otasi» deb e'tirof etiluvchi olim **Xalil ibn Ahmad** (715/719 – 786/791) tomonidan amalga oshirildi. U aruz ilmini bir butun tizim holiga keltirdi va uning nazariy asoslarini ishlab chiqdi.

«Aruz» so'zining ko'plab lug'aviy ma'nolari bor. Adabiy istiloh sifatida ularning qay biri asos qilib olingani aniq emas. Bu borada olim va ijodkorlar tomonidan bir-biridan tubdan farq qiluvchi bir qancha fikrlar bildirilgan. Ulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz:

1. Vodiy nomi.
2. Makka shahrining nomlaridan biri.
3. Taraf, jihat, mintaqa, yon.
4. Bulut.
5. Sarkash tuya.

6. Chodirning o'rta ustuni.
7. O'lchov.

Oliy ta'limda aruz tizimini nazariy jihatdan o'rgatishga kirishish uchun, avvalo, talabalarning bo'g'in va hijo haqidagi tushunchalarini aniqlab olish zarur. Ta'kidlash joizki, aruz nazariyasidagi hijo tushunchasi ham tilshunoslikdagi bo'g'in haqidagi bilimlarga asoslanadi, bir hijo tarkibida ham bitta unli mavjud bo'ladi. Ammo ba'zi o'rinlarda bir bo'g'in ikki hijoga teng kelib qolishi ham mumkin. Masalan, *qadr* so'zi bir bo'g'inli bo'lsa-da, aruzda ikki hijoli so'z hisoblanadi. Chunki so'z tarkibida qator undosh kelyapti. Shu sababli uni cho'zibroq, iloji bo'lsa, bilinarbilinmas *i* orttirib talaffuz qilish zarur: *qadr(i)* tarzida. Yoki *hech*, *dod*, *oh* kabi so'zlar ham gohida vazn talabi bilan ikki hijoga teng hisoblanadi. Shunda bu so'zlar ham *qadr* talaffuz qilingani kabi cho'zib, bilinar-bilinmas *i* orttirib aytiladi: *hech(i)*, *dod(i)*, *oh(i)* tarzida. Demak, ma'lum bo'lyaptiki, bo'g'in va hijo tushunchalari aksariyat hollarda o'zaro mos kelgani holda ba'zi o'rinlarda birbiridan farqlanar ekan.

Ana endi aruz tizimidagi hijolar haqida ma'lumot berish zarur bo'ladi. Aruz vaznida 3 xil hijo bor: **cho'ziq, qisqa va o'ta cho'ziq hijolar.**

Cho'ziq hijo

Cho'ziq hijo matnda «—» belgisi bilan ifodalanadi. Bu hijoning ikki xil turi bor:

a) yopiq bo'g'in orqali ifodalanuvchi cho'ziq hijo. Matnda «**men**», «**el**», «**maktab**», «**daf-tar**» kabi so'zlar kelsa, ikkilanmasdan ularni yuqoridagi belgi asosida ko'rsatish mumkin. Masalan:

Men		El		M	Tab		D	T
				ak			af	ar
—		—		—	—		—	—

Demak, bu so'zlarning barchasi cho'ziq hijolardan iborat.

b) **ochiq bo'g'in orqali ifodalanuvchi cho'ziq hijo.** Mazkur hijoni cho'ziq unli hosil qiladi. Ma'lumki, o'zbek tilida 6 ta unli tovush mavjud. Ularning cho'ziq yoki qisqalik darajasi nisbiydir. Buni ma'lum bir matn tarkibidagi so'zlarni talaffuz qilishda his qilish mumkin. Faqat «o» unlisi aksariyat holatlarda (deyarli 90 foiz o'rinda) cho'ziq talaffuz etiladi. Masalan: «**bo-bo**», «**do-no**», «**sav-do**» kabi so'zlarda «o» unlisi cho'ziq talaffuz etilganligi uchun cho'ziq hijo sifatida qabul qilinadi:

Do	no		bo	bo		sav	do
—	—		—	—		—	—

Qolgan unlilar esa quyidagi holatlarda cho'ziq hijoni hosil qiladi:

- ko'pincha so'zning oxirida; -qo'shimcha (affiks)lar tarkibida;
- urg'u olganida.

Jab	Ru		Ki	y	Ni
				ik	
	—				—

Ushbu so'zlardagi «**jab-**», «**-yik**» bo'g'inlari cho'ziq hijoning birinchi turiga kiradi, ya'ni yopiq bo'g'inli cho'ziq hijo. Agar bu holni to'liq shaklda ko'radigan bo'lsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

	Ru		K	Y	N
ab		i	ik	i	
	—		—	—	

Qisqa hijo

Qisqa hijo matnda «V» belgisi bilan ifodalanadi. Bunday hijo doim ochiq bo'g'inga asoslanadi. Faqat bu hijoni ifodalovchi ochiq hijo, yuqoridagi holatdan farqli o'laroq, qisqa unli bilan yakunlanishi kerak. Demak, bu o'rinda endi «o» unlisining kelish ehtimoli kamroq (10 foizga yaqin hollarda). Tilimizdagi ba'zi so'zlar, xususan, «**bo-shim**», «**to-pib**», «**so-tib**» kabi so'zlardagi «o» unlisi qisqa talaffuz qilinganligi uchun qisqa hijo hisoblanadi:

B	Shi		To	Pi		So	Ti
o	m			b			b
V			V			V	

Qolgan unlilar (i, e, u, o', a) esa quyidagi holatlarda qisqa hijoni hosil qiladi: -ko'pincha so'zning boshi va o'rtasida kelganida; -urg'usiz bo'lganida.

Ya'ni bunday hijo ko'pincha so'zning boshi hamda o'rtasida keladi va urg'u olmaydi. Masalan:

i	o		a	on		i	m		o	ik		el		i

O'ta cho'ziq hijo

O'ta cho'ziq hijo matnda «- V» belgisi bilan ifodalanadi. Misra oxirida esa «~» belgisi qo'llaniladi. Bunday belgining qo'yilishiga sabab, odatda, misra qisqa hijo bilan yakunlanmaydi.

Aruzda cho'ziq hijo bir to'liq bo'g'in hisoblansa, qisqa hijo yarim bo'g'inga teng sanaladi:

$$“_” = 1;$$

$$“V” = 0,5$$

Shuni nazarda tutgan holda o'ta cho'ziq hijoni *bir yarim hijo* deyish mumkin:

$$“ - V” = 1,5$$

Bu hijo ikki xil bo'ladi:

a) qator undosh bilan tugagan yopiq bo'g'in. Bunda bir bo'g'inda ikki turli undoshning ketma-ket kelishi nazarda tutiladi. Masalan, **qadr, mehr, dard, charx, aql** kabi so'zlar qator undoshli so'zlar hisoblanadi. Bu hodisa o'zbek tiliga xos bo'lmay, arab va fors tillaridan kirgan o'zlashma so'zlarda uchraydi. Shuning uchun talaffuzda birinchi undoshdan so'ng qisqa «i» unlisini qo'shib aytamiz: **qad(i)r, meh(i)r...** kabi. Aslida, qisqa «i» unlisi ikkinchi undoshdan so'ng talaffuz qilinishi kerak. Chunki mazkur so'zlarni urg'u asosida talaffuz qilsak, ular tarkibidagi unlini cho'ziq aytishimiz hisobiga bo'g'inning oxirida qisqa «i» unlisi orttiriladi, ya'ni: **Mehr(i), qadr(i), charx(i)** va hokazo.

Natijada ushbu bo'g'inlarga ikki belgi qo'yiladi:

ye	(i)		a d	(i)		ha	(i)
h							

b) tarkibida cho'ziq unlisi bo'lgan yopiq bo'g'in. Bu bo'g'inning oddiy yopiq bo'g'indan farqi shundaki, uning tarkibida nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinuvchi unlilar (aksariyat holatlarda «o», «e», «u» tovushlari)

qatnashadi. Masalan, **hech**, **dod**, **voy** kabi soʻzlarni talaffuz qilayotganda boʻgʻin oxiridagi undosh tovushdan keyin yuqoridagi kabi qisqa «i» qoʻshib oʻqiladi: **hech(i)**, **dod(i)**, **voy(i)**. Bu soʻzlar matnda quyidagicha belgilanadi:

y	h(i		o	(i		o	(i

Talaba baytdagi hijolarning qisqa yoki choʻziqligini oʻzlashtirganidan soʻng rukn va bahr haqida maʼlumot berish mumkin. **Rukn** arabcha soʻz boʻlib, oʻzbek tilida «ustun» degan maʼnoni bildiradi. Aruz tizimida esa maʼlum bir hijolarning birikuvidan hosil boʻladigan ritmik boʻlak rukn hisoblanadi. Masalan, bir choʻziq + bir qisqa + bir choʻziq + bir choʻziq (– V – –) hijolar birlashsa, foilotun deb ataluvchi rukn vujudga keladi. Foilotun soʻzi «faala» soʻzining oʻzagidan hosil qilingan boʻlib, alohida maʼno anglatmaydi. Mazkur soʻzning tarkibidagi hijolar sifatiga eʼtibor qaratsak, yaʼni boʻgʻinlarni choʻziq-qisqalarga ajratsak, «fo» – choʻziq, «i» – qisqa, «do» – choʻziq, «tun» – choʻziq hijolardan iborat ekanligiga guvoh boʻlamiz. Ruknlar ikki xil boʻladi: **asliy** ruknlar va **tarmoq** ruknlar. Asliy ruknlar oʻzgarishga uchramagan, toʻliq holatdagi ritmik boʻlaklar boʻlsa, tarmoq ruknlar asliy ruknlardagi hijolarni muayyan tarzda oʻzgartirish hisobiga vujudga keladi.

Aruz tizimida sakkizta asliy rukn mavjud boʻlib, ular quyidagilardir:

2-jadval

	Asliy ruknlar nomi	Chizmasi	Hosil qilinadigan bahr nomi
	Foilotun	–V – –	Ramal
	Mafoiylun	V – – –	Hazaj
	Mustaf'ilun	– – V –	Rajaz
	Fauvlun	V – –	Mutaqori b
	Foilun	– V –	Mutadori k
	Mutafoilun	V V – V –	Komil
	Mafoilatun	V – V V –	Vofir
	Maf'uvlotu	– – – V	Bahr yasamaydi

Ulardan dastlabki to'rttasi nisbatan faol qo'llaniladi.

Aruzga doir risolalarda **tarmoq ruknlar** miqdori turlicha ko'rsatilgan⁶. Dastlab talabaga eng ko'p tarqalgan 3 ta tarmoq rukn haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Bular: mahzuf, maqsur va

⁶ aylantirish hisobiga ro'y beradi (foiliyyon – – V ~ ; mafoiylon V – – ~, fauvlon V – ~).

Hijolarning takroridan ruknlar hosil bo'lgani kabi, ruknlarning muayyan tarzda takrorlanib kelishi **bahr**larni vujudga keltiradi. "Bahr" so'zi arab tilida "dengiz"

musabbag'. Mahzuf oxirgi bo'g'ini tashlangan tarmoq rukn bo'lib, misraning oxirida keladi (foilun – V –; fauvlun V – –; faal V –). Maqsur esa (oxirgi bo'g'ini tashlanib, o'ta cho'ziq qilingan tarmoq rukndir (foilon – V ~; mafoiyl V – ~; fauyl V ~). Shu ma'noda u mahzufga yaqin turadi. Musabbag' esa asliy ruknning so'nggi bo'g'inini o'ta cho'ziq hijoga degan ma'noni bildiradi. Masalan, foilotun rukni takroridan *ramal* deb ataluvchi bahr, mafoiylun rukni takroridan *hazaj* bahri, mustaf'ilun rukni takroridan *rajaz* bahri va hokazo hosil bo'ladi.

Aruz tizimida 19 bahr mavjud⁷. Turkiy aruzda esa (Alisher Navoiy she'riyati asosida fikr yuritsak) asosan ularning 13 tasi qo'llaniladi. Shu 13 bahrning ichida 4 tasi nisbatan faol bahrlardan sanaladi. Ular **ramal**, **hazaj**, **rajaz**, **mutaqorib** bahrlaridir.

1-jadval

	Bahrlar nomi	Asliy ruknlar nomi	Chizmadagi shakli
	<i>Ramal</i>	Foilotun	–V – –
	<i>Hazaj</i>	Mafoiylun	V – – –
	<i>Rajaz</i>	Mustaf'ilun	– – V –
	<i>Mutaqorib</i>	Fauvlun	V – –

⁷ Aruzshunoslikda bahrlar miqdori masalasida turli fikrlar mavjud. Xalil ibn Ahmad 15 ta bahr haqida ma'lumot bergan bo'lsa, uning izdoshi Abulhasan Axfash Balxiy yana bir bahr (mutadorik) qo'shib, bahrlar sonini 16 taga yetkazdi. Keyinchalik forsiy aruzshunoslar yana 3 bahr (mushokil, g'arib, qarib)ni ham aruz tizimiga kiritdilar va bahrlar miqdorini 19 ta deb belgiladilar. Turkiy aruzshunoslar, xususan, Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ulbalog'a" asarida 40 ta, Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida 19 ta, Boburning "Risolai aruz"ida 21 ta bahr nomi keltirilgan.

Baytlar hijolarining chizmadagi shakli **taqti'** deyiladi. Taqti' arabcha so'z bo'lib, "qirqish", "bo'lak-bo'lak qilish" degan ma'nolarni bildiradi. Adabiy istiloh (atama) sifatida taqti' aruz ilmida she'r vaznini aniqlash uchun she'r misralarini ruknlarga ajratishni anglatadi. Taqti'ning asosiy sharti shuki, baytning birinchi misrasidagi cho'ziq va qisqa hijolar ikkinchi misradagi aynan shunday hijolar bilan mutanosiblik kasb qilishi kerak.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

Asosiy adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2022.
2. Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 224 б.
3. Ҳоҷиаҳмедов А. Аруз назарияси асослари. Қўлланма – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 80 б.

Qo'shimcha adabiyotlar:

4. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сироҷиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.
5. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика
6. (XXV в.). – М.: Наука, 1989.
7. Фитрат. Аруз ҳақида: Адабиёт муаллимлари ва илм толиблари учун / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.
8. Shodmonov N. Aruz vazni asoslari. – Qarshi: Nasaf, 2012. – 68 b.
9. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 406 б.

Internet saytlari

10. www.ziyo-net.uz
11. www.edu.uz

12. www.litera.ru.
13. www.Philologs.narod.ru.

3-MAVZU:

MUMTOZ QOFIYANI O'QITISH MASALALARI. MUMTOZ QOFIYA ASOSLARI, UNING TARKIBIY QISMLARI

REJA:

1. *Mumtoz qofiyani o'qitish bilan bog'liq muammolar*
2. *Ilmi qofiya. Uning vujudga kelish omillari*
3. *Mumtoz qofiya turlari. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlari*
4. *Mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad(qaydli) qofiyalar*
5. *Qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlari. Mutlaq va muqayyad qofiyalar*

Kalit so'zlar: Ilmi qofiya, raviy, murdaf, muassas, mutlaq, muqayyad, mujarrad, radif, hojib.

Texnik jihozlar va ko'rgazmali vositalar: Ma'ruza bo'yicha tayyorlangan slaydlar, nashr etilgan manbalar va ilmiy adabiyotlar.

Ma'ruzada qo'llanilgan metodika (ped.texnologiya): Aqliy hujum, BBB metodlari.

Mavzuning amaliyot bilan bog'liqligi:

1. Filologik ta'limning jamiyat hayotidagi o'rnini aniqlash uchun zarur.
2. Oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari o'zlari ta'lim berayotgan filologik sohani aniq bir tizim sifatida angalshi kerak.
3. Qofiya ilmini adabiyotshunoslikning tarkibiy qismiga kiritish tavsiya etiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ilmi qofiyaning mumtoz poetikadagi o'rnini haqida so'zlab bering.

2. Mumtoz qofiya turlarini sanang. G'azaliyotimizda ularning qaysilari faol qo'llanilgan?
3. Radif va qofiyaning o'xshash va farqli jihatlari haqida so'z yuriting. Ularning qofiyaga qanday aloqasi bor?

Qofiya (ar.) misralar oxiridagi qo'shimcha, so'z va so'z qo'shilmalarining o'zaro ohangdosh bo'lib kelishidir. Qofiya mumtoz she'rshunoslikda vazn kabi she'riy ritmni vujudga keltiruvchi asosiy unsur bo'lib, uning bayt so'ngida qo'llanilishi zaruriy talablardan biri bo'lgan. Sharq musulmon adabiyotshunosligida qofiya haqidagi nazariy qarashlar maxsus fan – *ilmi qofiyada* o'z ifodasini topgan. Qofiyalar o'zak tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Mujarrad qofiya** (ar.) – yakka, yolg'iz, tanho. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Bunday qofiya turida raviy harfi cho'ziq unliidan iborat bo'lishi yoki raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin *tavjih* – qisqa unli kelishi asosiy talab hisoblanadi. Forsiy va turkiy she'riyatda keng qo'llanilgan.

Ushbu qofiya haqidagi ma'lumotlar Shams Qays Roziyning “Al-mo'jam” (12181233), Nasiruddin Tusiyning “Me'yor ul-ash'or” (1253) asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda mujarrad qofiya raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

*Ko'zung ne balo **qaro** bo'lubtur,*

*Kim jonga qaro **balo** bo'lubtur.*

Bunda “qaro” va “balo” so'zlaridagi “o” raviysi cho'ziq unli bo'lib, qofiyadosh so'zlar shu harf bilan yakunlangan.

Mujarrad qofiyaning ikkinchi turida raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin qisqa unli keladi. Bunda qisqa unli *tavjih* deb yuritiladi.

Yor holidin menga vahkim xabar yo'qtur bu kun,

Bu jihatdin aqlu hushumdin asar yo'qtur bu kun.

Bunda “xabar” va “asar” so‘zlari qofiyadosh bo‘lib, “r” undoshi raviy, undan oldingi “a” qisqa unlisi tavjih bo‘lib hisoblanadi. Qofiya raviy harfi bilan yakunlanyapti va shu orqali mujarrad qofiya vujudga kelyapti.

2. **Murdaf qofiya** – Qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ridfli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida raviy harfidan oldin cho‘ziq unlilardan biri – *ridfi asliy*, ba‘zan esa *ridfi zoyid* keladi. Murdaf qofiya forsiy va turkiy she‘riyatda keng qo‘llanilgan. Ushbu haqidagi ma‘lumotlar Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam”(1218-1233), Nasiruddin Tusiyning “Me‘yor ul-ash‘or” (1253) asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda murdaf qofiya raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi.

*To bo‘ldi ko‘ngul ul ko‘zi usrukka **giriftor**,*

*El ko‘ziga sog‘men, vale o‘z-o‘zuma **bemor***

(G‘aroyib us-sig‘ar, 182-g‘azal)

baytida “giriftor” va “bemor” so‘zlari qofiya, “r” – raviy, undan oldin to‘rgan “o” unlisi – ridfi asliy.

Chun kinavu qatlin angladim rost,

Qildim neki mumkin erdi darxost -

(Layli va Majnun)

baytida “rost” va “darxost” so‘zlari qofiya, “t” harfi – raviy, “o” – ridfi asliy, “s” - ridfi zoyiddir.

3. **Muqayyad (qaydli) qofiya** – Qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Qaydli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida o‘zak tarkibida qisqa unlidan so‘ng qator undosh keladi. Bunda qisqa unli *hazv*, raviydan oldin to‘rgan undosh *qayd* deb ataladi. Muqayyad qofiya forsiy va turkiy she‘riyatda u qadar keng qo‘llanilmagan. Mumtoz qofiyaga doir manbalarda muqayyad qofiya haqida ma‘lumotlar keltirilmaydi.

Ey ko‘ngul, yor o‘zgalar domig‘a bo‘ldi poybast,

Senga mushkil holatu bizga qatiq ish berdi dast. –

(G'aroyib us-sig'ar, 76-g'azal)

baytida “poybast” va “dast” so'zlari qofiya, “t” harfi – raviy, “s” – qayd, qisqa “a” unlisi hazv hisoblanadi.

4. **Muassas qofiya** – Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ta'sisli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida cho'ziq “o” unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladi. Cho'ziq “o” unlisi *ta'sis* deb, undan keyingi undosh *daxil* deb, raviy oldidagi qisqa unli esa *ishbo'* deb ataladi.

Muassas qofiya haqidagi ma'lumotlar Shams Qays Roziyning “Almo'jam”(1218-1233), Nasiruddin Tusiyning “Me'yor ul-ash'or” (1253) asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda muassas qofiya raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Gar yetar ag'yordin yuz ming jarohat, ey, ko'ngul,

Chunki bordur yor uchun bor ayshu rohat, ey ko'ngul. –

(Navodir ush-shabob, 384-g'azal)

baytida “jarohat” va “rohat” so'zlari qofiya, “t” harfi – raviy, “o” – ta'sis, “h” undoshi – *daxil*, “a” unlisi – *ishbo'* hisoblanadi. Ba'zan ta'sisli qofiyada ikki misradagi *daxil* ikki xil undoshdan iborat bo'lishi ham mumkin. Masalan:

Ishq ahli go'ristonida qabrim chu zohir bo'lg'usi,

Farhod aning toshin yo'nub, Majnun mujovir bo'lg'usi.

(G'aroyib us-sig'ar, 627-g'azal)

baytida “zohir” va “mujovir” so'zlari qofiya bo'lib, *daxil* ikki xil undoshdan: “h” va “v” undoshlaridan iborat ekanligini kuzatish mumkin.

Qofiyalar tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1) **muqayyad qofiya** (ar.) – bog'langan, kishanlangan. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Raviy harfi bilan tugallanadi. Shams Qays Roziyning “Al-mo'jam”(1218-1233) asarida muqayyad qofiya

raviy harfining ikki nav'idan biri sifatida, Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1253) asarida qofiyaning holatiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri sifatida keltirilgan.

Muqayyad qofiyada o'zak raviy harfi bilan yakunlanganligi, ya'ni o'zakda raviydan keyin hech qanday harf qo'llanilmaganligi uchun zamonaviy she'rshunoslikda muqayyad qofiyani "o'zak qofiya" deb atash an'anasi ham mavjud (U.To'ychiev).

Elga sharaf bo'lmadi johu nasab,

Lek sharaf keldi hayovu adab. –

(Hayrat ul-abror)

baytida "nasab" va "adab" so'zlari qofiya bo'lib, raviy "b" harfidir. Qofiya raviy harfi bilan tugallanayotganligi uchun ushbu qofiya turi muqayyad qofiya hisoblanadi.

2) mutlaq qofiya (ar.) – yetuk, to'liq. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Mutlaq qofiyada raviy harfidan keyin qofiyaning boshqa harflari (*vasl, xuruj, mazid, noyira*) ham ishtirok etadi. Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam" (1218-1233) asarida mutlaq qofiya raviy harfining ikki nav'idan biri sifatida, Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1253) asarida qofiyaning holatiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri sifatida keltirilgan. Alisher Navoiy g'azaliyotida mutlaq qofiya keng qo'llanilgan. Masalan:

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,

Ko'ngluma har birining dardu balosinmu deyin? –

(Navodir ush-shabob, 483-g'azal)

baytida "qarosinmu", "balosinmu" so'zlari mutlaq qofiya bo'lib, ulardagi "o" unlisi raviydir. Raviydan keyin kelgan "s" undoshi – *vasl*, "n" undoshi – *xuruj*, "m" – *mazid* va qofiya oxiridagi "u" unlisi *noyira* hisoblanadi, "s" harfidan keyin kelgan qisqa "i" unlisi esa *nafoz*dir. Mutlaq qofiya hisoblanishi uchun raviydan so'ng birgina *vasl* harfining qo'llanilishi ham kifoya qiladi.

Radif (ar.) – izma-iz keluvchi, otning orqasidan ergashib boruvchi. Mumtoz she'r unsurlaridan biri. She'riy misralarda qofiyadan so'ng aynan takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlar qo'shilmasi. Radif she'rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni takrorlash, kitobxon e'tiborini asosiy g'oyaga jalb etib, muallif g'oyaviy niyatini chuqurroq yetkazib berishga xizmat qiladi. Mumtoz she'rshunoslikda R. qofiya ilmi tarkibida o'rganilgan. Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam"(1218-1233), Nasiruddin

Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1251-1252), Abdurahmon Jomiyning "Risolai qofiya", Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" (1436-37) asarlarida R. forsiy she'riyatga xos bo'lib, arablarda qo'llanilmaganligi ta'kidlanadi.

Alisher Navoiy ijodida radif muhim ahamiyatga ega bo'lib, "Xazoyin ulmaoniy" kulliyotidan o'rin olgan g'azallarning deyarli teng yarmini (1294 g'azal) radif qo'llanilgan baytlar tashkil qiladi. Shoir R. lari bir bo'g'indan 9 bo'g'ingacha bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Masalan, shoirning

Dilbaro, sendin bu g'amkim, menda bordur, kimda bor?

Furqatingdin bu alamkim, menda bordur, kimda bor? –

(Navodir ush-shabob, 148-g'azal)

bayti bilan boshlanuvchi g'azalida R. "menda bordur, kimda bor?" so'zlaridan iborat bo'lib, 7 bo'g'indan iborat.

Hojib (ar.) – pardador, berkituvchi. Mumtoz she'r unsurlaridan biri. She'riy misralarda qofiyadan oldin aynan takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlar qo'shilmasi. hojib qo'llangan she'r mahjub deb ataladi. Mumtoz poetikaga doir manbalarda hojibning bir ma'noda qo'llanilishi zaruriy shartlardan hisoblangan.

Alisher Navoiy ijodida hojib ko'proq "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda qo'llanilgan. Masalan, "Layli va Majnun" dostonidan olingan

Chek aynima ishq to'tiyosin,

Ur qalbima ishq kimiyosin! –

baytida “ishq” so‘zi hojib bo‘lib kelgan.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Ta’lim-media, 2019.
2. Ҳоҗиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ НМК, 1998. – 158 б.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги.–Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

4. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Тошкент, 1997. – 20 б.
5. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1–2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сироҷиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.
6. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 426 б.
7. Ҳоҗиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.:Шарқ,1990.– 240 б.

IV.AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI



1-AMALIY MASHG'ULOT:

ARUZDA VASL, IMOLA, TASLIM TUSHUNCHALARI

Reja:

1. Vasl hodisasi haqida ma'lumot

2. Imola va uning turlari. Imolai maqbul (yoqimli imola) va imolai maqduh

3. Taslim va uning aruz nazariyasidagi o'rni

Tayanch so'z va iboralar: vasl, cho'ziq hijo, o'ta cho'ziq hijo, imola, imolai maqbul, imolai maqduh, taslim.

Mavzuning qisqacha bayoni:

Vasl arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «**ulanish**» ma'nosini anglatadi. Baytdagi bir so'zning o'zidan keyin kelayotgan unli harf bilan boshlangan so'zga qo'shib o'qilishi **vasl** deyiladi. Buni yaxshiroq tushunish uchun bir baytni olib tahlil qilib ko'raylik:

Tun, oqshom bo'ldi-yu, kelmas mening sham'i shabistonim, Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

Birinchi misradagi **tun** so'zini biz qoida bo'yicha cho'ziq deb olamiz, shunda ikkala misradagi qolgan so'zlarning ham hijolarini aniqlasak, quyidagi manzara paydo bo'ladi:

---- / **V** ---- / **V** ---- / **V** ----

V ---- / **V** ---- / **V** ---- / **V** ----

Bir qaraganda, **hazaji musammani solim** vaznidagi she'r. Lekin birinchi misradagi ilk hijo nega cho'ziq? U qisqa bo'lishi kerak emasmi? Ha, bu hijo qisqa bo'lishi kerak, shuning uchun **tun** so'zini o'zidan keyin kelayotgan **oqshom** so'ziga qo'shib o'qiymiz:

Tun **oqshom** bo'ldi-yu, kelmas mening sham'i shabistonim.

Bo'g'inga ajratganda, **tu-noq-shom** deb ajratish va shu tarzda o'qish maqsadga muvofiqdir. Ayni shu hodisani **vasl** deb ataymiz. Unga ko'ra,

undosh bilan tugagan soʻz oʻzidan keyin kelgan va unli bilan boshlangan soʻz bilan qoʻshilib ketib, ochiq boʻgʻinli soʻzga aylanadi. Vasl hodisasi mumtoz she'riyatimizda koʻp uchraydi va buni bilish she'ring vaznini toʻgʻri aniqlab oʻqishda, ayniqsa, muhimdir.

UNUTMANG!

Vasl hodisasi bir soʻz tarkibida sodir boʻlmaydi! Ushbu hodisa yuzaga kelishi uchun birinchi soʻz undosh bilan tugab, undan keyin kelayotgan soʻz unli bilan boshlanishi kerak, ya'ni ikki soʻz orasi ochiq boʻlishi kerak.

Vasl hodisasi koʻpincha baytda oʻta choʻziq hijoni oddiy choʻziq hijoga

e	i	e	s	a	a	n	‘z	u	h	a	i	‘a	r	u	an	t	a
															(i)		
															V		
e	ni	s	ar	i	hi	ing	uh	a	in	o’n	g	im	i	and	t	a	
														(i)			
															V		

aylantirishi ham mumkin. Masalan, quyidagi taqti'ga e'tibor qaratsak:

Ushbu bayt hijolarini choʻziq va qisqaga ajratganimizda **arjumand** va **pisand** soʻzlarini oʻta choʻziq hijo deb qabul qilganligimiz uchun yuqorida oʻrgangan qoidamiz asosida **arjumandi** hamda **pisandi** deb oʻqishimiz va

shunga mos tarzda o'ta cho'ziq qilib belgilashimiz kerak. Lekin bu tarzda belgilasak, to'rtinchi ruknda ikkita qisqa bo'g'in bo'lib qoladi va ruknlar orasidagi mutanosiblikka putur yetadi, shu sababli **arjumand** va **pisand** so'zlarini o'zidan keyin kelayotgan **etmas** so'ziga qo'shib o'qiymiz. Ana shunda aruzga xos ohang ham, vazn ham saqlanadi:

e	ni	e	s	a	a	n	'z	uh	a	i	'a	r	u	a	et	a
e	ni	s	ar	i	hi	ing	uh	a	in	o'n	g	im	i	an	et	a

Demak, ko'rinyaptiki, ushbu bayt hazaj bahrining **hazaji musammani solim** vaznida yozilgan ekan.

Aruziy matnda ko'pincha **imola** hodisasi ham uchrab turadi. "**Imola**" arabcha so'z bo'lib, "biror narsaga suyanish", "egilish" degan ma'nolarni bildiradi. Adabiy istiloh sifatida esa vazn talabi bilan o'ta cho'ziq hijolar tarkibidagi unlilarni hamda qisqa talaffuz qilinuvchi unlilarni sun'iy tarzda cho'zib o'qishni ifodalaydi. Shu asosda aruzshunoslikda imolaning ikki turi farqlanadi:

1) *imolai maqbul* (yoqimli imola) – o'ta cho'ziq hijo tarkibida sodir bo'lib, unli tovushni cho'zib talaffuz qilish va undosh tovushdan so'ng qisqa

“i” unlisini qo‘shib o‘qish natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, Alisher Navoiyning

Yordin ayru ko‘ngul mulkedurur sultoni yo‘q,

Mulkkim, sultoni yo‘q, jismedururkim joni yo‘q

deb boshlanuvchi g‘azalida “yor”, “mulk” so‘zlari o‘ta cho‘ziq hijo bo‘lib, bu so‘zlarda “r” hamda “k” undoshlaridan keyin qisqa “i” unlisi qo‘shib talaffuz qilinadi.

2) *imolai maqduh* (siniq yoki yoqimli bo‘lmagan imola) – qisqa talaffuz qilinuvchi unlilarni vazn talabi bilan sun’iy tarzda cho‘zib o‘qish⁸. Boburning quyidagi baytga diqqat qaratsak:

Oyog‘im yetkancha Boburdek ketar edim, netay, Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana.

Baytda “oyog‘im”, “sochining” so‘zlaridagi “o” tovushlari odatiy talaffuzda qisqa aytiladi. Lekin bayt *ramali musammani mahzuf* vazni (–V – – / – V – – / – V – – / – V –)da yozilganligi uchun misralarning birinchi bo‘g‘ini cho‘ziq bo‘lishi talab qilinadi va natijada yuqorida tilga olingan so‘zlar sun’iy tarzda cho‘zib o‘qiladi. Aruziy matnga xos xususiyatlardan yana biri **taslim** hodisasidir. Taslim arabcha “yemirish” ma’nosini bildirib, vazn talabi bilan baytdagi so‘zlarning biror harfini tushurishdir. Taslim ko‘p hollarda juft undoshlardan birining, “vov” (“v”) undoshining, yoy (“y”) hatfi va b.larning matn tarkibidan tushirib qoldirilishi hisobiga yuz beradi. Masalan, “Hayrat ul-abror” dostonidan olingan *Charx to‘quz durjiki zarkor erur, Javfida yuz ming duri shahvor erur*, - baytida ikkita “q” undoshidan biri tushirilib, taslim hosil qilingan bo‘lsa, Lutfiy g‘azali maqta’sida esa vazn talabi bilan taxallusdagi “y” undoshi tushirib qoldirilgan:

Lutfi(y)ni mayxonada oshufta ko‘rsang, qilma ayb

⁸ A.Hojjahmedov bu hodisaga imolaning turi sifatida emas, balki alohida aruziy atama sifatida qaraydi va uni “istihlof” nomi bilan keltiradi (Qarang: Hojjahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. – T.: Sharq, 1998. – B.57.)

Kim, bu majnun ixtiyori zulfi qullobindadur.

Demak, ko'rinyaptiki,

Mavzuning amaliyot bilan bog'liqligi:

1. Mumtoz she'rlarning vaznini to'g'ri aniqlash uchun vasl, imola va taslim hodisalaridan yaxshi xabardor bo'lish talab qilinadi.
2. Oliy o'quv yurtlarining muallimlari o'zlari ta'lim berayotgan yo'nalish bo'yicha talabalarga ushbu hodisalar mohiyatini anglatishi va shu asosda aruziy matn tahlilini amaliyotda namoyon etishi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. «Vasl» hodisasini tushuntirib bering.
2. Vasl hodisasi bayt vaznini aniqlashda qanday ahamiyatga ega?
3. Imola nima?
4. Taslim istilohiga izoh bering.
5. Quyidagi baytlarning vaznini aniqlang va ularda vasl va imolani ko'rsating:

Ulki derlar, jumlayi olamda g'olib husn erur,

Muntahoi vosili matlub-u tolib husn erur (Atoyi)

Husn ichinda bir seningtek dilrabo bo'lg'aymu hech?

Ishq eliga dog'i mentek muftalo bo'lg'aymu hech?

(Gadoyi)

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. – Toshkent: Sharq, 1998. – 224 b.
2. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. Qo'llanma – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 80 b.
3. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. – T.:Akademnashr, 2020.

2-AMALIY MASHG'ULOT:

RUKN VA UNING TURLARI. BAHRLAR TASNIFI

Reja:

1. *Asliy va tarmoq ruknlar*
2. *Bahrlar tasnifi. Muttafiq ul-arkon va muxtalif ul-arkon bahrlari*
3. *Vaznlarni aniqlashning zamonaviy usullari*

Tayanch soʻz va iboralar: rukn, asliy va tarmoq ruknlar, bahr, hazaj, ramal, rajaz, mutaqorib, sari', xafif, mujtass.

Texnik jihozlar va ko'rgazmali vositalar: Mashg'ulot bo'yicha tayyorlangan slaydlar, nashr etilgan manbalar va ilmiy adabiyotlar.
Mashg'ulotda qo'llanilgan metodika (ped.texnologiya): Aqliy hujum, BBB metodlari.

Mavzuning dolzarbligi: Aruz tizimida 19 dan ortiq bahrlar mavjud.
 "Aruz va mumtoz poetikaga kirish" fanini o'qitishda ularni ikkiga bo'lib o'rganish qulaylik tug'diradi.

Mavzuning qisqacha bayoni:

Aruz tizimida ruknlar ikki xil bo'ladi: *asliy* ruknlar va *tarmoq* ruknlar. Asliy ruknlar o'zgarishga uchramagan, to'liq holatdagi ritmik bo'laklar bo'lsa, tarmoq ruknlar asliy ruknlardagi hijolarni muayyan tarzda o'zgartirish hisobiga vujudga keladi. Turkiy she'riyatda qo'llanadigan 13 ta bahr qanday ruknlardan tarkib topganiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi:

1. Bir xil asliy ruknlardan tashkil topgan bahrlar⁹.
2. Turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar⁹.

⁹ Mumtoz aruzshunoslikda bunday bahrlar "Muttafiq ul-arkon bahrlar" deb nomlangan. ⁹
 Aruzshunoslikda ularni "Muxtalif ul-arkon bahrlar" deb atash qabul qilingan.

Birinch guruhga faqat bir asliy ruknga ega bo'lgan bahrlar kiradi. Ya'ni ramal bahri faqat **foilotun** ruknining, hazaj bahri esa faqat **mafoiylun** rukni va shu kabi bu guruhga kirgan qolgan bahrlar ham bir asliy ruknning takroriga asoslanadi. Biz yuqorida turkiy aruzda qo'llanuvchi shunday bahrlardan faqat to'rttasini ko'rib chiqdik. Aslida, turkiy aruzda bunday bahrlar soni **oltita**. Yuqorida keltirilgan 1jadvalni endi to'liq holda ko'ramiz

3-jadval

	Bahrlar nomi	Asliy ruknlar nomi	Chizmasi
	<i>Ramal</i>	Foilotun	– V – –
	<i>Hazaj</i>	Mafoiylun	V – – –
	<i>Rajaz</i>	Mustaf'ilun	– – V –
	<i>Mutaqorib</i>	Fauvlun	V – –
	<i>Mutadorik</i>	Foilun	– V –
	<i>Komil</i>	Mutafoilun	V V – V –

Turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar esa o'zining asl ustuniga, ya'ni rukniga ega bo'lmaganligi uchun ular ikki xil asliy ruknlarning birikuvidan hosil bo'ladi. Ushbu guruhga kiruvchi bahrlar soni 7 tadir.

1. *Muzori'* mafoiylun va foilotun asliy ruknlarining tarmoqlaridan vujudga kelib, turkiy she'riyatda asosan musamman ko'rinishida mavjud bo'ladi.

2. *Mujtass* mustaf'ilun va foilotun asliy ruknlarining tarmoqlaridan vujudga kelib, turkiy she'riyatda asosan musamman shaklida uchraydi.

3. *Munsarih* mustaf'ilun va maf'uvlotu asliy ruknlari tarmoqlarining o'zaro almashinuvidan vujudga kelib, turkiy she'riyatda asosan musamman shaklida uchraydi.

4. *Sari'* ikki marta mustaf'ilun va bir marta maf'uvlotu asliy ruknlarining tarmoqlaridan vujudga kelib, turkiy she'riyatda asosan musaddas shaklida uchraydi.

5. *Xafif* foilotun asliy rukni va tarmoqlari hamda mustaf'ilun asliy ruknining tarmoqlaridan vujudga kelib, turkiy she'riyatda asosan musaddas shaklida uchraydi.

6. *Tavil* fauvlun va mafoiylun asliy ruknlaridan vujudga kelib, she'riyatda asosan musamman ko'rinishida mavjud bo'ladi.

7. *Ariz* mafoiylun va fauvlun asliy ruknlaridan vujudga kelib, she'riyatda asosan musamman shaklida uchraydi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni zamonaviy usulda quyidagicha tushuntirish mumkin:

Aruz deganda biror oliy o'quv yurtini tushunsak, bahr deganda undagi yo'nalishlar (fakultetlar)ni tasavvur qilaylik. Bilamizki, fakultetlarning o'z nomlari bor. Demak, bahrlar ham nomlanadi. Aruz tizimida 19 bahr mavjud¹⁰. Turkiy aruzda esa (Alisher Navoiy she'riyati asosida fikr yuritsak) asosan ularning 13 tasi qo'llaniladi. Shu 13 bahrning ichida 4 tasi nisbatan faol bahrlardan sanaladi. Ular **ramal**, **hazaj**, **rajaz**, **mutaqorib** bahrlaridir. Har bir fakultetning tayanch fanlari bo'lgani kabi, bahrlar ham o'z

¹⁰ Aruzshunoslikda bahrlar miqdori masalasida turli fikrlar mavjud. Xalil ibn Ahmad 15 ta bahr haqida ma'lumot bergan bo'lsa, uning izdoshi Abulhasan Axfash Balxiy yana bir bahr (mutadorik) qo'shib, bahrlar sonini 16 taga yetkazdi. Keyinchalik forsiy aruzshunoslar yana 3 bahr (mushokil, g'arib, qarib)ni ham aruz tizimiga kiritdilar va bahrlar miqdorini 19 ta deb belgiladilar. Turkiy aruzshunoslar, xususan, Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ulbalog'a" asarida 40 ta, Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida 19 ta, Boburning "Risolai aruz"ida 21 ta bahr nomi keltirilgan.

ustunlariga, ya'ni xos ruknlariga ega. Bular asliy ruknlar hisoblanadi, tayanch fanlar o'z ichida yana bo'limlarga bo'linganidek, har bir asliy rukn ham tarmoq ruknlarga bo'linadi. Bu haqda keyingi mavzularda batafsilroq suhbatlashamiz. Hozircha yuqorida aytib o'tilgan 4 bahrning ruknlari, ya'ni ustunlari qanday nomlanishini bilib olishimiz zarur.

Ramal bahri ruknining chizmasi quyidagichadir: – **V** – – (**cho'ziq, qisqa, cho'ziq, cho'ziq**). Bu rukn **foilotun** deb ataladi. Bir nuqtaga e'tibor bering: **fo** – cho'ziq, **i** – qisqa, **lo** – cho'ziq, **tun** – cho'ziq. Demak, rukn nomi uning chizmasini o'zida aks ettirar ekan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Asliy ruknlar deganda nimani tushunasiz?
2. Asliy ruknlar soni nechta?
3. Asliy ruknlarning qaysi biri bahr yasamaydi?
4. Asliy ruknlarning bahr hosil qilishdagi vazifasi haqida nimalar deya olasiz?
5. Aruz tizimida nechta bahr mavjud va ularning qaysilari turkiy adabiyotda keng qo'llanadi?
6. Vaznlarni qanday qoida asosida nomlaymiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Ҳоҷиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 224 б.
2. Ҳоҷиаҳмедов А. Аруз назарияси асослари. Қўлланма – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 80 б.
3. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. – T.:Akademnashr, 2020.

Internet saytlari

1. www.ziyo-net.uz
2. www.edu.uz
3. www.litera.ru.
4. www.Philologs.narod.ru.

3-AMALIY MASHG'ULOT

MUMTOZ QOFIYANI ANIQLASH USULLARI

Reja:

1. *Raviy va uning qofiya tarkibidagi o'rni.*
2. *Raviydan avval keluvchi harflar.*
3. *Qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlash.*

Tayanch so'z va iboralar: raviy, ridf, ta'sis, ishbo', ridfi asliy, ridfi zoyid, mutlaq, muqayyad

Ko'rgazmali vositalar: Mavzu bo'yicha tayyorlangan slaydlar, nashr etilgan manbalar va ilmiy adabiyotlar.

Mashg'ulotda qo'llanilgan metodika (ped.texnologiya): Gtafik organayzerlar, klister.

Mumtoz she'rning qaysi janrga mansubligi aniqlash uchun undagi ohangdosh so'zlarni belgilash zarur. Eng avvalo raviyni aniqlanadi. Raviydan avval keluvchi harflarga qarab qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlari topib olinadi.

Mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad (qaydli) qofiyalarni aniqlash usullari. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlash va ularni nomlash tamoyillari.

Mavzuning qisqacha bayoni:

Qofiyalar o'zak tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Mujarrad qofiya** (ar.) – yakka, yolg'iz, tanho. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Bunday qofiya turida raviy harfi cho'ziq unli dan iborat bo'lishi yoki raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin *tavjih* – qisqa unli kelishi asosiy talab hisoblanadi. Forsiy va turkiy she'riyatda keng qo'llanilgan.

Ushbu qofiya haqidagi ma'lumotlar Shams Qays Roziyning “Al mo'jam”(1218-1233), Nasiruddin Tusiyaning “Me'yor ul-ash'or” (1253) asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda mujarrad qofiya raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

*Ko'zung ne balo **qaro** bo'lubtur,*

*Kim jonga qaro **bal**o bo'lubtur.*

Bunda “qaro” va “bal” so'zlaridagi “o” raviysi cho'ziq unli bo'lib, qofiyadosh so'zlar shu harf bilan yakunlangan. Mujarrad qofiyaning ikkinchi turida raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin qisqa unli keladi. Bunda qisqa unli *tavjih* deb yuritiladi.

Yor holidin menga vahkim xabar yo'qtur bu kun,

Bu jihatdin aqlu hushumdin asar yo'qtur bu kun.

Bunda “xabar” va “asar” so'zlari qofiyadosh bo'lib, “r” undoshi raviy, undan oldingi “a” qisqa unli *tavjih* bo'lib hisoblanadi. Qofiya raviy harfi bilan yakunlanayotgani va shu orqali mujarrad qofiya vujudga kelyapti.

2. **Murdaf qofiya** – Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ridfli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida raviy harfidan oldin cho'ziq unli lardan biri – *ridfi asliy*, ba'zan esa *ridfi zoyid* keladi. Murdaf qofiya forsiy va turkiy she'riyatda keng qo'llanilgan. Ushbu haqidagi ma'lumotlar Shams Qays Roziyning “Al-mo'jam”(1218-1233), Nasiruddin Tusiyaning “Me'yor ul-ash'or” (1253) asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda murdaf qofiya raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

*To bo'ldi ko'ngul ul ko'zi usrukka **giriftor**,
El ko'ziga sog'men, vale o'z-o'zuma **bemor***

(G'aroyib us-sig'ar, 182-g'azal)

baytida “giriftor” va “bemor” so'zlari qofiya, “r” – raviy, undan oldin to'rgan “o” unlisi – ridfi asliy.

*Chun kinavu qatlin angladim rost,
Qildim neki mumkin erdi darxost -*

(Layli va Majnun)

baytida “rost” va “darxost” so'zlari qofiya, “t” harfi – raviy, “o” – ridfi asliy, “s” - ridfi zoyiddir.

3. **Muqayyad (qaydli) qofiya** – Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Qaydli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida o'zak tarkibida qisqa unlidan so'ng qator undosh keladi. Bunda qisqa unli *hazv*, raviydan oldin to'rgan undosh *qayd* deb ataladi. Muqayyad qofiya forsiy va turkiy she'riyatda u qadar keng qo'llanilmagan. Mumtoz qofiyaga doir manbalarda muqayyad qofiya haqida ma'lumotlar keltirilmaydi.

*Ey ko'ngul, yor o'zgalar domig'a bo'ldi poybast,
Senga mushkil holatu bizga qatiq ish berdi dast. –*

(G'aroyib us-sig'ar, 76-g'azal)

baytida “poybast” va “dast” so'zlari qofiya, “t” harfi – raviy, “s” – qayd, qisqa “a” unlisi *hazv* hisoblanadi.

4. **Muassas qofiya** – Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ta'sisli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida cho'ziq “o” unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladi. Cho'ziq “o” unlisi *ta'sis* deb, undan keyingi undosh *daxil* deb, raviy oldidagi qisqa unli esa *ishbo'* deb ataladi.

Muassas qofiya haqidagi ma'lumotlar Shams Qays Roziyning “Almo'jam”(1218-1233), Nasiruddin Tusiyning “Me'yor ul-ash'or” (1253)

asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda muassas qofiya raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Gar yetar ag'yordin yuz ming jarohat, ey, ko'ngul,

Chunki bordur yor uchun bor ayshu rohat, ey ko'ngul. –

(Navodir ush-shabob, 384-g'azal)

baytida “jarohat” va “rohat” so'zlari qofiya, “t” harfi – raviy, “o” –ta'sis, “h” undoshi – daxil, “a” unlisi – ishbo' hisoblanadi. Ba'zan ta'sisli qofiyada ikki misradagi daxil ikki xil undoshdan iborat bo'lishi ham mumkin. Masalan:

Ishq ahli go'ristonida qabrim chu zohir bo'lg'usi,

Farhod aning toshin yo'nub, Majnun mujovir bo'lg'usi.

(G'aroyib us-sig'ar, 627-g'azal)

baytida “zohir” va “mujovir” so'zlari qofiya bo'lib, daxil ikki xil undoshdan: “h” va “v” undoshlaridan iborat ekanligini kuzatish mumkin.

4-AMALIY MASHG'ULOT

QOFIYANING TUZILISHIGA KO'RA TURLARINI ANIQLASH VA ULARNI NOMLASH TAMOYILLARI

Qofiyalar tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1) **muqayyad qofiya** (ar.) – bog'langan, kishanlangan. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Raviy harfi bilan tugallanadi. Shams Qays Roziyning “Al-mo'jam”(1218-1233) asarida muqayyad qofiya raviy harfining ikki nav'idan biri sifatida, Nasiruddin Tusiyning “Me'yor ul-ash'or” (1253) asarida qofiyaning holatiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri sifatida keltirilgan.

Muqayyad qofiyada o'zak raviy harfi bilan yakunlanganligi, ya'ni o'zakda raviydan keyin hech qanday harf qo'llanilmaganligi uchun zamonaviy she'rshunoslikda muqayyad qofiyani “o'zak qofiya” deb atash an'anasi ham mavjud (U.To'ychiev).

Elga sharaf bo'lmadi johu nasab,

Lek sharaf keldi hayovu adab. –

(Hayrat ul-abror)

baytida “nasab” va “adab” so‘zlari qofiya bo‘lib, raviy “b” harfidir. Qofiya raviy harfi bilan tugallanayotganligi uchun ushbu qofiya turi muqayyad qofiya hisoblanadi.

2) mutlaq qofiya (ar.) – yetuk, to‘liq. Qofiyaning tuzilishiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Mutlaq qofiyada raviy harfidan keyin qofiyaning boshqa harflari (*vasl, xuruj, mazid, noyira*) ham ishtirok etadi. Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam” (1218-1233) asarida mutlaq qofiya raviy harfining ikki nav‘idan biri sifatida, Nasiruddin Tusiyning “Me‘yor ul-ash‘or” (1253) asarida qofiyaning holatiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri sifatida keltirilgan. Alisher Navoiy g‘azaliyotida mutlaq qofiya keng qo‘llanilgan. Masalan:

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,

Ko‘ngluma har birining dardu balosinmu deyin? –

(Navodir ush-shabob, 483-g‘azal)

baytida “qarosinmu”, “balosinmu” so‘zlari mutlaq qofiya bo‘lib, ulardagi “o” unlisi raviydir. Raviydan keyin kelgan “s” undoshi – *vasl*, “n” undoshi – *xuruj*, “m” – *mazid* va qofiya oxiridagi “u” unlisi *noyira* hisoblanadi, “s” harfidan keyin kelgan qisqa “i” unlisi esa *nafoz*dir. Mutlaq qofiya hisoblanishi uchun raviydan so‘ng birgina *vasl* harfining qo‘llanilishi ham kifoya qiladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 426 б.
2. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 224 б.
3. Ҳожиаҳмедов А. Аруз назарияси асослари. Қўлланма – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 80 б.

4. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. – T.:Akademnashr, 2020.

V. KEYSLAR BANKI



KEYSLAR BANKI

Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. «Keys-stadi» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» — aniq vaziyat, hodisa, «stadi» — oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul boʻyicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:

Kuyar jonim, netay dilxoh unutti,

Koʻngul ahvolidin ogoh unutti.

(Atoyi)

Ushbu bayt vaznini aniqlang

Gʻazal baytidagi bir soʻzning oʻzidan keyin kelayotgan unli harf bilan boshlangan soʻzga qoʻshib oʻqilishi nima deyiladi?

1. Hijolarning chizmadagi shakli bu ...
2. “Vodiy nomi” degan maʼnolni anglatuvchi atama bu...
3. *Kelki, sensiz tobakay maqtuli hijron boʻlgʻamen, Choraye qilkim, sening ollingda qurbon boʻlgʻamen.* (Bobur) Gʻazal vazni qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

4. *Soqiyo, hijron tunidir, boda tut,*

Ul quyosh birla bu shomimni yorut. (Navoiy) Gʻazal vazni qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

Qaro zulfing firoqida parishon roʻzgʻorim bor,

Yuzungning ishtiyoqida ne sab-ru ne qarorim bor.

(Bobur)

G'azal vaznini aniqlang

5. Mirzo Ulug'bek zamonidagi mashhur qasidanavis shoir kim edi?
6. O'zbek adabiyotidagi she'r tizimlarini sanang?
7. Adabiyotshunoslikda nutqning ma'lum tarzda qolipga solinishi qanday ataladi?
8. Navoiy, Bobur, Fitrat kabi ijodkorlar uchun umumiy bo'lgan ma'lumot berilgan javobni toping.
9. Qaysi she'riy vazn hijolarning miqdoriga emas, balki ularning sifatiga asoslanadi?
10. Turkiy she'riyatda qachondan boshlab aruz vazni keng qo'llanila boshlagan?
11. Turkiy adabiyotdagi aruz vaznida bitilgan dastlabki dostonni ko'rsating.
12. Navoiy va Boburning aruz vazniga bag'ishlangan asarlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
13. Turkiy tildagi she'riyat qoidalariga bag'ishlangan ilk asar nomi?
14. Nodira g'azalidan keltirilgan
“Doda keldim, ey salotin sarvari, dardim eshit,
Sen shohu men benavo, lutf ayla, faryodim eshit” bayti aruz tizmining qaysi vaznida yozilgan?
15. Agar bayt sakkiz rukndan iborat bo'lsa, aruz vazni quyidagi atamalardan qaysi biri bilan yurirtiladi?
16. Agar bayt olti rukndan iborat bo'lsa, aruz vazni qanday nomlanadi?
17. Hajaz bahrining afoyilini toping.
18. Mutaqorib bahri qanday paydo bo'ladi?
19. Aruz vaznidagi ramal bahri qanday paydo bo'ladi?
20. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni qanday vaznda yozilgan?

21. Furqatning quyidagi:

“Surmadin ko`zlar qaro, qo`llar xinodin lolarang,

G`ozadan yuzlarda tobu o`smadin qoshlar tarang” bayti vaznini toping.

22. Navoiyning quyidagi:

“Mehr ko`p ko`rguzdim, ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido, oromijone topmadim” matla'li g'azali qaysi bahr va ruknda yozilgan?

23. Aruz vaznida ruknlarning o`zaro munosabati va takrori asosidagi ko`rinishlari qanday ataladi?

24. Rajaz bahrining afoylini toping

25. Mutaqorib bahrining ruknlari qanday bo`g`inlardan iborat bo`ladi?

26. Turkiy va forsiy mumtoz adabiyotdagi nomalar asosan qaysi vaznda yozilgan?

27. Navoiyning quyidagi:

Charxdek har kimki bir badmehr sargardondir” misrasi necha bo`g`in va necha hijodan iborat?

28. Bobur “Muxtasar” asarida bahrlar sonini qanchaga yetkazgan va qancha vaznni tavsiflagan?

29. Undosh bilan tugagan hijo qisqa bo`lishi mumkinmi?

30. Labing bag`rimni qon qildi,

Ko`zimdin qon ravon qildi,

Nechun holim yomon qildi,

Men ondin bir so`rorim bor. Ushbu parchadagi "iyhom" va musajja'ni aniqlang.

31. Lutfiy g'azalidan olingan quyidagi baytlardagi radifni aniqlang. Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul, Xoru rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

32. Lutfiyning "Bu ko'nguldur, bu ko'ngul" radifli g'azalida qofiyadosh so'zlardagi raviy qaysi tovush? 36. Nodiraning "Firoqnoma" asari qaysi she'riy shaklda yaratilgan?

37. Navoiy devonida musammatlarning qaysi turi uchramaydi?

38. Rukn so'zi qaysi tildan olingan, qanday ma'noni bildiradi? 39. Baytlardagi hijolarning chizmadagi shakli nima deydi? 40. G'azal baytidagi bir so'zning o'zidan keyin kelayotgan unli harf bilan boshlangan so'zga qo'shilib o'qilishi qanday hodisa deyiladi?

41. *Ey jalol-u rahmatingdin gar zalil-u, gar muazzaz*


Sahfayi kavnayn o'lub oting tarozidin mutarraz... Ushbu g'azalning vaznini aniqlang?

42. Qaysi vaznda foilotun rukni uch marotaba takrorlanib, 4-rukni foilon shaklida keladi?

43. Qaysi vaznning vujudga kelishida oxirgi ruknning mafoiylonga, ya'ni musabbag'shakliga o'zgarishi bilan bog'liq?

44. Lutfiyning "Suratingni kimki ko'rdi, qildi jono jon fido, Siyratingg'a xud qilur olib farishta iqtido" deb boshlanuvchi g'azalining taqtisini aniqlang.

VI.GLOSSARIY



GLOSSARIY

- **Abtar** – mafoiylun asliy ruknining tarmoq rukni (– fa') hisoblanib, misrada so'nggi ruknda keladi.
- **Ajuz** - Sharq mumtoz poetikasida baytning oxiri *ajuz* yoki *zarb* deyiladi.
- **Aqd** - (ar. – ikkita narsani bir-biriga mustahkam bog'lamoq, tugish) – Qur'on oyatlari va hadislar matnini she'riy asarlarda vazn va qofiya talabiga muvofiq juz'iy o'zgartishlar bilan keltirish san'ati.
- **Ariz** - mafoiylun va fauvlun asliy ruknlaridan vujudga kelib, she'riyatda asosan musamman shaklida uchraydi.
- **Aruz** – she'riy o'lchov
- **Aruz doiralari** - bu ruknlar, ulardagi cho'ziq va qisqa hijolar sonining tengligiga ko'ra o'zaro yaqin bo'lgan bahrlarning guruhlashtirilgan aylanasidir.
- **Bahr** - Hijolarning takroridan ruknlar hosil bo'lgani kabi, ruknlarning muayyan tarzda takrorlanib kelishi **bahrlarni** vujudga keltiradi. "Bahr" so'zi arab tilida "dengiz" degan ma'noni bildiradi
- **Bo'g'in** - So'zning bir havo zarbi bilan hosil bo'ladigan qismi bo'g'in hisoblanadi.
- **Cho'ziq hijo** - matnda «→» belgisi bilan ifodalanadi.
- **Fard** - (ar.) – yakka, yolg'iz, yagona. Bir baytdangina iborat eng kichik mustaqil she'r shakli, *a-a* yoki *a-b* tarzida qofiyalanadi.
- **Fosila** - arabcha «palos», «oraliq».
- **G'azal** - (ar.) – oshiqona so'z, ishq izhor qilish, ayollarni madh etish ma'nolarini bildirib, Sharq mumtoz she'riyatida keng tarqalgan lirik janr hisoblanadi.
- **Hashv** - Sharq mumtoz poetikasida misraning o'rtasi hashv deyiladi.

- **Hazaj** - bahri faqat mafoiylun rukni va shu kabi bu guruhga kirgan qolgan bahrlar ham bir asliy ruknning takroriga asoslanadi.
 - **Hijo** – aruz tizimidagi eng kichik birlik
 - **Hojib** - pardador, berkituvchi. Mumtoz she'r unsurlaridan biri. She'riy misralarda qofiyadan oldin aynan takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlar qo'shilmasi.
 - **Husni ta'lil** - (ar. – chiroyli dalillash) – biror voqeani unga bevosita daxli bo'lmagan boshqa bir hodisa bilan izohlash san'ati.
 - **Ibtido** - Sharq mumtoz poetikasida ikkinchi misraning boshi *ibtido* deyiladi.
 - **Ilmi aruz** - she'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalari haqida bahs yurituvchi soha.
 - **Ilmi badi'** - nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha.
 - **Ilmi balog'a** - balog'at ilmi
 - **Ilmi qofiya** - qofiya qonuniyatlari va turlari haqida ma'lumot beruvchi soha.
 - **Insho** - Musulmon Sharqi adabiyotida *insho* janri ham mashhur bo'lib, asosan maktublar yig'indisidan iborat bo'lgan.
- Iqtibos** - (ar. – nur olish, ziyolanish) – Qur'on oyatlari va hadislarining matnini adabiy asarda aynan keltirishga asoslangan badiiy san'at.
- **Irsoli masal** - (ar. – maqol yoki matal yuborish) – baytda maqol, matal va hikmatli so'zlarni keltirishga asoslangan she'riy san'at.
 - **Ishtiyoq** - (ar. – bir so'zdan boshqa so'z hosil qilish) – bir o'zakdan hosil bo'ladigan bir nechta so'zni bayt yo jumlada qo'llash san'ati.
 - **Iyhom** - (arabcha «shubhaga solish», «adashtirish») – she'rda ikki ma'noli so'zni qo'llash san'ati.

- **Juzv** - (arabcha «qism, bo'lak, parcha») *mutaharrik* va *sokin* harflardan tashkil topuvchi aruziy birlik hisoblanadi.
- **Kalomi jomi'** - (ar. – jamlovchi, umumlashtiruvchi so'z) – she'rda yoki baytda pand-nasihat, o'git, axloq-odobga oid, zamona va zamondoshlardan shikoyat bilan bog'liq fikrlarni keltirishga asoslangan she'riy san'at.
- **Kitobot** - arab alifbosidagi harflarning shaklidan foydalanib, timsol yaratish san'ati.
- **Komil** - so'zi arabcha bo'lib, lug'aviy jihatdan «yetuk», «kamchiligi yo'q» ma'nolarini anglatadi. Mazkur vazn *mutafoylun* asliy rukni takroridan hosil bo'ladi.
- **Laff va nashr** - (ar, “yig'ish va yoyish”) – bunda shoir biror narsa yoxud hodisani oldin sanaydi, so'ng shu tartibda ularga tegishli o'xshatishlarni tizib chiqadi.
- **Lug'z** - arabcha “topishmoq”, “sir” ma'nolarini anglatadi va fors-tojik adabiyotida *chiston* (forscha “nima u”) deb ham yuritiladi. Lug'z biror predmet yoki hodisaning xarakter va belgilarini ta'rifu tavsif etish orqali kitobxonni o'sha predmet yoki hodisani topishga undaydigan she'r turidir.
- **Muammo** -(ar. – ko'r qilingan, berkitilgan) - bir, ba'zan esa ikki baytdan iborat bo'lgan, *a-a* yoki *a-b* tarzida qofiyalanuvchi lirik janr.
- **Muassas** - Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ta'sisli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida cho'ziq “o” unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladi. Cho'ziq “o” unlisi *ta'sis* deb, undan keyingi undosh *daxil* deb, raviy oldidagi qisqa unli esa *ishbo'* deb ataladi.
- **Mubolag'a** -(ar. – kattalashtirish, kuchaytirish) – adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol harakati yoki holatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati.

- **Mujarrad** - (ar.) – yakka, yolg'iz, tanho. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Bunday qofiya turida raviy harfi cho'ziq unlidan iborat bo'lishi yoki raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin *tavjih* – qisqa unli kelishi asosiy talab hisoblanadi.
- **Mujtass** - so'zi arabcha bo'lib, «ildizi bilan yulib olingan» degan ma'noni bildiradi. Mazkur bahr mustaf'ilun hamda foilotun asllarining almashinib kelishidan hosil bo'ladi va turkiy she'riyatda faqat *musamman* ko'rinishida uchraydi

- **Munsarih** - so'zi arabcha bo'lib, «oson va ravon qilingan», «erkin» degan ma'nolarni bildiradi. Adabiyotimizda, xususan, Navoiy she'riyatida mazkur bahrning faqat *musamman* shakllaridan foydalanilgan. Munsarih bahri misradagi birinchi va uchinchi ruknning *mustaf'ilun*, ikkinchi va to'rtinchi ruknning *maf'uvlotu* tarzida kelishidan hosil bo'ladi

- **Muqayyad** - (ar.) bog'langan, kishanlangan **Murabba'** - (ar. "to'rtlik") – to'rt misralik band usulida yozilgan she'r.

Qofiyalanishi: a-a-a-a, b-b-b-a, d-d-d-a...

- **Murdaf** - Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ridfli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida raviy harfidan oldin cho'ziq unlilardan biri – *ridfi asliy*, ba'zan esa *ridfi zoyid* keladi. Murdaf qofiya forsiy va turkiy she'riyatda keng qo'llanilgan.

- **Musabba'** - (ar.) yettilik. Har bandi 7 misradan iborat she'r shakli, *a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-a...* yoki *a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-a-a...* tarzida qofiyalanadi. Musabba' mumtoz adabiyotda u qadar keng tarqalmagan.

- **Musaddas** - (ar. – oltilik) – har bandi 6 misradan iborat she'r shakli, *a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-a...* yoki *a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-a-a...* tarzida qofiyalanadi.

- **Musajja'** - (ikkinchi baytdan boshlab ichki qofiya qo'llaniladigan) – Navoiy, Bobur, Mashrab she'riyatida keng qo'llanilgan

- **Musallas** - (ar. "uchlik") – uch misrali band usulida yozilgan she'r. Qofiyalanishi: aa-a, b-b-a, d-d-(yoki: a-a-a, b-b-b...). G'arbda tersina deb ataladi. Turkiy adabiyotdagi ilk namunasi "Qisasi Rabg'uziy"da uchraydi (muqaddimada Nosiruddin To'qbug'abek madhi).
- **Musamman** - (ar.) sakkizlik.
- **Musammat** - (ar. "marvarid donalarini ipga termoq") bandli she'rlardir
- **Muashshar** - (ar.) – o'nlik. Har bandi 10 misradan iborat she'r shakli. Mumtoz adabiyotda faqat Nodira va Tabibiy ijodida uchraydi. Nodira muashshari a-a-a-a-aaa-a-b-b, b-b-b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a-a tarzida qofiyalangan bo'lib, bandning oxiridagi ikki misra aynan – naqarot tarzida takrorlanadi.
- **Mustazod** - (ar. "orttirilgan", "ziyoda qilingan") - har bir misrasidan so'ng yana yarim misra orttiriluvchi she'r shakli. Bunda orttirilayotgan yarim misra tarkiban asosiy misraning birinchi va to'rtinchi ruknlariga teng bo'ladi. Mustazod uchun g'azal asos – zamin vazifasini o'taydi.
- **Mutadorik** - so'zi arabcha bo'lib, lug'aviy jihatdan «bir-biriga ulanuvchi» degan ma'noni anglatadi. Mutadorik bahri vaznlari **foilun** asli va undan hosil bo'ladigan tarmoq ruknlarning takroridan yasaladi.
- **Mutaqorib** - so'zi arabcha bo'lib, «bir-biriga yaqinlashuvchi» degan ma'noni bildiradi. Turkiy she'riyatda aruz tizimining ilk bor qo'llanilishi aynan shu bahr nomi bilan bog'liq, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostoni mazkur bahrda yaratilgan. She'riyatimizda mutaqorib bahrining faqat musamman shakli qo'llanilgan. Mazkur vazn **fauvlun** ruknining takrori asosida yuzaga keladi.
- **Mutassa'** - (ar.) to'qqizlik. Har bandi 9 misradan iborat she'r shakli, a-a-a-a-a-aaa-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a... yoki a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-bba-a, d-d-d-d-d-d-d-a-a... tarzida qofiyalanadi.

- **Mutlaq** - (ar.) – yetuk, to'liq. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Mutlaq qofiyada *raviy* harfidan keyin qofiyaning boshqa harflari (*vasl, xuruj, mazid, noyira*) ham ishtirok etadi.

- **Muxammas** - ar. “beshlik”) – har bandi 5 misradan iborat she'r shakli, *a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a...* tarzida qofiyalanadi.

Muzori' - «Muzori'» so'zi arabcha bo'lib, «o'xshash», «monand» degan ma'noni bildiradi. Adabiyotimizda, xususan, Navoiy she'riyatida mazkur bahrning faqat musamman shakllaridan foydalanilgan. Muzori' bahri birinchi va uchinchi ruknlarda **mafoiylun** hamda ikkinchi va to'rtinchi ruknlarda **foilotun** asllarining takroridan hosil bo'ladi.

- **O'ta cho'ziq hijo** - matnda «– V» belgisi bilan ifodalanadi. Misra oxirida esa «~» belgisi qo'llaniladi. Bunday belgining qo'yilishiga sabab, odatda, misra qisqa hijo bilan yakunlanmaydi.

- **Poetika** - yunoncha so'z bo'lib, “ijod qilish san'ati” ma'nosini bildiradi. Poetika ijodning qanday qilib san'atga aylanishi haqidagi fandir.

- **Qalb** - (ar.- teskari qilmoq) yoki **maqlub** - misra yoki bayt tarkibidagi so'z teskari o'qilganda ham ma'no anglatishiga asoslangan badiiy san'at.

- **Qasida** - (ar. “maqsad”, “niyat”) – biror tarixiy shaxs yoki voqeaga bag'ishlab yoziladigan katta hajmli baytli she'r shakli bo'lib, hajman 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo'lishi mumkin. G'azal singari *a-a, b-a, d-a, e-a...*, ayrim hollarda masnaviy singari (dostonlar tarkibida kelganda) qofiyalanadi.

- **Qisqa hijo** - matnda «V» belgisi bilan ifodalanadi. Bunday hijo doim ochiq bo'g'inga asoslanadi.

- **Qit'a** - (ar.)parcha, bo'lak, qism). Ikki baytdan bir necha baytgacha hajmda bo'lgan, juft misralari qofiyalanib, toq misralari ochiq qoluvchi (*ba , va, ga ...*) lirik janr.

- **Radif** - (ar.) izma-iz keluvchi, otning orqasidan ergashib

boruvchi. Mumtoz she'r unsurlaridan biri. She'riy misralarda qofiyadan so'ng aynan takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlar qo'shilmasi.

- **Rajaz** - arabcha so'z bo'lib, «tezlik», «shitob», «iztirob» ma'nolarini bildiradi.

Mazkur bahr *mustaf'ilun* asli va uning takroridan hosil bo'ladi.

- **Ramal** - Ramal bahri turkiy she'riyatda eng ko'p qo'llanilgan bahr bo'lib, deyarli barcha shoirlar ijodida yetakchi o'rinda turadi. «Ramal» so'zi arabcha «tuyaning lo'killashi», «bo'yra to'qish» degan ma'noni anglatadi
- **Ruboiy** - (ar. – to'rtlik) Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan baytli she'r shakli hisoblanadi. Ruboiy ikki baytdan iborat bo'lib, *a-a-b-a* yoki *a-a-a-a* tarzida qofiyalanadi. Ruboiy o'ziga xos maxsus vaznda yoziladi: bu hazaj bahrining *axrab* va *axram* shajarasidir.
- **Ruju'** - (ar. – qaytish) shoirning she'rdagi avvalgi misra yoki baytda ifodalagan fikridan voz kechib, keyingi misra yoki baytda uni yanada kuchliroq ifodalashiga asoslangan badiiy san'at. Ilmi badi'ga doir mumtoz manbalarda *istidrok*, ba'zan *tadoruk* nomi bilan ham keltiriladi.
- **Rukn** - arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «ustun» degan ma'noni bildiradi. Aruz tizimida esa ma'lum bir hijolarning birikuvidan hosil bo'ladigan ritmik bo'lak rukn hisoblanadi.
- **Sabab** - arabcha «arqon».
- **Sadr** - Sharq mumtoz poetikasida baytning boshi *sadr* deyiladi.
- **Sari'** - so'zi arabcha bo'lib, lug'aviy jihatdan «shitob bilan yuruvchi», «tez» degan ma'nolarni anglatadi. Turkiy she'riyatda mazkur bahrning faqat *musaddas* ruknli vaznlaridan foydalanilgan.
- **Solim** – ar. **sog'lom. Ta'rix** - bu muayyan voqea-hodisa yoki inson hayoti bilan bog'liq biror sanani ochiq aytilmay, arab alifbosidagi harflar vositasi, ya'ni abjad usuli asosida ko'rsatishdir. She'rshunoslik ilmida ta'rixga alohida she'riy

janr sifatida ham, badiiy san'at sifatida ham qarash mavjud. Bu ikkala qarash ham muayyan asosga ega.

- **Tajnis** - ar. – jinsdosh, hamjins) – baytda shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin so'zlarni qo'llashga asoslangan she'riy san'at. Asosan nazmda, ba'zan nasrda ham istifoda etiladi. Ilmi badi'ga doir manbalarda tajnisning bir necha turlari farqlanadi.
- **Tajohuli orif** -(ar. «bilib bilmaslikka olish»). Bunda shoir o'zi tasvirlayotgan holatni so'roq ostiga olish bilan ifodani kuchaytiradi. Tajohuli orifda berilayotgan savol javobni talab qilmaydi, ya'ni aytilayotgan fikr mazmunan ritorik so'roqqa yaqin turadi.
- **Tajziya** - (ar. “bo‘lak bo‘lak qilmoq”) bayt misralarining har birini teng ikki bo‘lakka ajratib, birinchi bo‘lakni uchinchi bo‘lak bilan, ikkinchi bo‘lakni to‘rtinchi bo‘lak bilan qofiyalash san'atidir. Bu san'at asosan g‘azal yoki qasidaning birinchi bayti, ya'ni matla'sida qo'llaniladi.
- **Talavvun** - (ar. “rang-barang”, “turlanuvchi”) yoki **mutalavvun**, **zulbuhur** – she'rni bir necha vaznda o'qishga asoslangan badiiy san'at.
- **Talmih** - (ar. – nazar tashlash, chaqmoq chaqishi) – nazm yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, qissalar, she'r, masal yoxud maqollarga ishora qilishga asoslangan she'riy san'at.
- **Tamsil** - (ar. – misol keltirish, dalillash) – she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at.
- **Tanosub** - (ar. – mos, mutanosib, daxldor) – baytda ma'no jihatdan bir-biriga yaqin va o'zaro mutanosib so'zlarni qo'llashga asoslangan badiiy san'at.
- **Taqti'** - Baytlar hijolarining chizmadagi shakli **taqti'** deyiladi. Taqti' arabcha so'z bo'lib, «qirqish», “bo‘lak-bo‘lak qilish” degan ma'nolarni bildiradi.

- **Tardi aks** - (ar. – teskari qilib takrorlash) – bayt tarkibidagi ikki so‘z yoki birikmani avval muayyan bir tartibda keltirib, so‘ng ularning o‘rnini almashtirib takrorlash san’ati.
- **Tarsi’** - (ar. – gavharni ipga tizish) – baytning birinchi misrasidagi barcha so‘zlarning ikkinchi misradagi so‘zlar bilan o‘zaro teng, vazndosh va qofiyadosh bo‘lishiga asoslangan badiiy san’at.
- **Tashbih** - (ar. – o‘xshatish) – ikki narsa yoki tushunchani ular o‘rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko‘ra o‘xshatish san’ati.
- **Tashxis** - (ar. – jonlantirish, shaxslantirish) – hayvonlar, qushlar, o‘simliklar va jonsiz narsalarga insonning xususiyatlarini ko‘chirish san’ati.
- **Tasmin** – ar. sakkizlik
- **Tatabbu’** - (ar. – jonlantirish, shaxslantirish) – hayvonlar, qushlar, o‘simliklar va jonsiz narsalarga insonning xususiyatlarini ko‘chirish san’ati.
- **Tavil** - so‘zi arabcha bo‘lib, «uzun» degan ma’noni bildiradi. Tavil bahri ham maxsus asliy ruknga ega emas. Uning solim ruknlari *fauvlun* (V– –), *mafoiylun* (V – – –), *fauvlun* (V– –), *mafoiylun* (V – – –) bo‘lib, she’riyatda tavilning asosan *musamman* ruknli vaznlaridan foydalanilgan. «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida tavil bahrining faqat bir vazni istifoda etilgan
- **Tavzi’** - (ar. – tarqatish, taqsimlash, ulashish) – baytda bir xil tovushlarni bir necha marta takrorlashga asoslangan san’at.
- **Taxmis** - Taxmisda muallif o‘zga shoir yoki ba’zida o‘z g‘azalini asos – zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgani holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g‘azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo‘shiladi. Maqta’ bandda taxmis bog‘layotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi.

- **Tazkira** - (ar. – xotira, esga olmoq) asosan, shoir va olimlarning tarjimai holi va ijodiyoti haqida ma'lumot beruvchi tarixiy-adabiy majmua hisoblangan. Unda u yoki bu shaxs haqidagi muhim ma'lumotlar va uning mashhur asarlaridan diqqatga sazovor misollar ilova qilingan.
- **Tazmin** - (biror g'azal asosida – zaminida yaratilgan) musammatlar – bir shoirning o'zidan oldin o'tgan yoki o'ziga zamondosh bo'lgan boshqa bir shoir g'azalini (ayrim hollarda o'z g'azalini) tanlab olib, ularning har baytiga uch yoki undan ortiq misralar qo'shishi. Bunday musammatlar, asosan, muxammas va musaddas doirasida keng tarqalgan.
- **Tazod** - ar. – zid qo'yish, qarshilantirish) – baytda ma'no jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llashga asoslangan she'riy san'at.
- **Tuyuq** - (turk. – tuymoq, his qilmoq) – to'rt misradan iborat mustaqil she'r shakli. Asosan turkiy xalqlar she'riyatida qo'llanilgan. Tuyuq ko'p hollarda *ruboiy* singari qofiyalanadi, lekin ba'zan *b-a*, *v-a* tarzida ham qofiyalanishi mumkin.
- **Vasl** - arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «**ulanish**» ma'nosini anglatadi. Baytdagi bir so'zning o'zidan keyin kelayotgan unli harf bilan boshlangan so'zga qo'shib o'qilishi **vasl** deyiladi.
- **Vatad** - arabcha «qoziqcha»
- **Xafif** - so'zi arabcha bo'lib, lug'aviy jihatdan «yengil» degan ma'noni bildiradi. Mumtoz she'riyatimizda xafif bahrining faqat *musaddas* shaklidan foydalanilgan.
- **Zulqavofiy** - (ar. – ko'p qofiyalilik) - bayt misralarida uch va undan ortiq so'zni qofiyadosh qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at bo'lib, bir yoki ikki so'zning qofiyalanmay, ochiq qolishi bilan tarsi'dan farqlanadi.
- **Zulqofiyatayn** - (ar. “ikki qofiyalilik”) – bayt misralarida ikki so'zni qofiyadosh qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at bo'lib, baytda asosiy

qofiyadan tashqari yana bir so'z o'zaro qofiyalanadi. Bunda qofiyadosh so'zlar misralar oxirida ketmaket (*mutakarrin qofiya*) keltirilishi yoki misralarning turli o'rinlarida (*mahjub qofiya*) kelishi mumkin.

VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI



I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi. 2017. 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. T., 2016. 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilganmajlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. T.: O'zbekiston, 2017. 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. T.: O'zbekiston, 2017. 48 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. T.: O'zbekiston, 2017. 488 b.

II. Normativ- huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi (O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda, 2003 yil 24 aprelda, 2007 yil 11 aprelda, 2008 yil 25 dekabrda, 2011 yil 18 aprelda, 2011 yildagi 12 dekabrda, 2014 yil 16 aprelda qabul qilingan qonunlariga muvofiq kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). T., 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborot-nomasi. 1997. 9-son, 225-modda.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997. 11-12-son, 295-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagi "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbir-korlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 2 noyabrda "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1426-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil mayda "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1533-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagi "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4456-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrda "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 365-sonli Qarori.

9. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797 sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2909 sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789 sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №-797 sonli Qarori

III. Maxsus adabiyotlar

1. Абдурахмон Жомий. Рисолаи аруз / масъул муҳаррир А.Эркинов, таржимон, шарҳлар ва изоҳлар муалифи Д.Юсупова. – Тошкент: ТАМАДДУН, 2014. – 100 б.
2. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.1. – 804 б.
3. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.2. – 772 б.
4. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.3. – 764 б.
5. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.4. – 840 б.

6. Алишер Навоий. Девони Фоний. Қасоид. Муфрадот. Хамсат ул-мутахаййирин. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.5. – 860 б.
7. Алишер Навоий. Хамса: Ҳайрат ул-аброр. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.6. – 808 б.
8. Алишер Навоий. Хамса: Лайли ва Мажнун. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.7. – 696 б.
9. Алишер Навоий. Хамса: Садди Искандарий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.8. – 712 б.
10. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Мажолис ун-нафоис. Маҳбуб ул-кулуб. Муншаот. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.9. – 768 б.
11. Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. Назм ул-жавоҳир. Насойим ул-муҳаббат. Муҳокамат ул-луғатайн. Мезон ул-авзон. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.10. – 692 б.
12. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.
13. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
14. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Т., 1997. – 20 б.

15. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – 398 б.
16. Бобир Захириддин. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 1971. – 413 б.
17. Вахид Табризи. Джем-и мухтасар / Критический текст, перевод и примечания А.Е.Бертельса. – Москва: Восточная литература, 1959. – 158 с.
18. Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003.
19. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – 128 б.
20. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. – 168 б.
21. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). – М.: Наука, 1989. – 240 с.
22. Насируддини Тўсий. Меъёр-ул-ашъор / Ҳозиркунандаҳои чоп У.Тоиров, М.Абдуллоев, Р.Чалол. – Душанбе: Ориёно, 1992. – 150 с.
23. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 186 б.
24. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғ.Ғулом, 1976.
25. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 120 б.
26. Рашидаддини Ватвот. Ҳадоиқ ус-сехр фи дақоиқ аш-шеър / Таҳияи матн, муқаддима ва тавзеҳоти Худой Шарифов. – Душанбе: Ирфон, 1987. – 144 с.

27. Раҳмонова Ш. XX аср иккинчи ярми ўзбек шеърлятида арузнинг поэтик шакл ва мазмун тақомилидаги ўрни. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Т., 2020. – 154 б.
28. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.
29. Сайфий. Арузи Сайфий / Нашрга тайёрловчи Ҳ.Блошман. – Калькутта, 1872. – 56 с. (форс тилида).
30. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 200 б.
31. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – 326 б.
32. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Т.: Navoiy universiteti NMU, 2019. – 128 б.
33. Сирус Б. Арўзи тоқикй. – Душанбе: Нашрдавтоқик, 1963. – 288 с.
34. Стеблева И.В. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. – Москва: Наука, 1993. – 180 с .
35. Стеблева И.В. Тюркская поэтика: этапы развития: VIII-XX вв. – Москва: Восточная литература, 2012. – 200 с.
36. Тоиров У. Фарҳанги истилоҳоти арўзи Ачам. – Душанбе: Маориф, 1991. – 560 с.
37. Тоиров У. Қомуси қофия ва арузи шеъри Ачам. Ч.1. – Душанбе: Ирфон, 1994. – 512 с.
38. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: Фан, 1985. – 208 б.

39. Тўйчиева Г. Форс арузи рисоалари. – Тошкент: ТошДШИ, 2008. – 134 б.
40. Тўйчиева Г. Ислом даври шеърлятида аруз тизими ва унинг эволюцион таракқиети. Филол.фан.бўйича доктор. (Dsc) дисс... – Тошкент, 2018. – 260 б.
41. Фитрат. Аруз ҳақида: Адабиёт муаллимлари ва илм толиблари учун / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.
42. Шамс Қайс Розий. Ал-мўъжам / Муаллифи сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандаи чоп У. Тоиров. – Душанбе: Адиб, 1991. – 464 с.
43. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – 430 б.
44. Shodmonov N. Aruz vazni asoslari. – Qarshi: Nasaf, 2012. – 68 b.
45. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 406 б.
46. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 224 б.
47. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 240 б.
48. Ҳожиаҳмедов А. Ҳусни таълил санъати. –Тошкент: Фан, 2006. – 288 б.
49. Ҳожиаҳмедов А. Шеърлий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ НМК, 1998. – 158 б.

50. Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Тошкент: Шарқ, 1999. – 240 б.
51. Ҳоҷиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006. – 288 б.
52. Юсупова Д. Алишер Навоий «Хамса»сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ, 2011. – 144 б.
53. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: TAMADDUN, 2016. – 304 б.
54. Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. – Т. : Та'lim-media, 2019. – 264 б.
55. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O'quv qo'llanma. – Т.: Та'lim-media, 2019. – 184 б.

IV.Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. Infocom.uz электрон журнали: www.infocom.uz
4. www.bimm.uz
5. www.literature.uz
6. www.kutubxona.uz
7. [http:// www.dissertations.ru/pedagog.html](http://www.dissertations.ru/pedagog.html)
8. [http: // www.scopus.com](http://www.scopus.com)

VIII.TAQRIZLAR



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ulaning malakasini oshirish
tarmoq markazi "O'zbek tili va filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi"
yo'nalishi kursi o'quv reja, dastur va o'quv uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

O'zbekiston Respublikasi milliy ta'lim sohasida o'ziga xos islohotlarni amalga oshirish bugun dolzarb sanaladi. Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligini dunyo adabiyotshunosligidagi yangi va zamonaviy ma'lumotlar bilan boyitish uchun oliy o'quv yurtlarining pedagog kadrlarni qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o'quv dasturlariga dunyodagi eng ilg'or talqin usullarini egallash lozim bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi odamlarning dunyogarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi talab etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur "O'zbek tili va filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'nalishidagi o'quv reja, dasturining mazmun-mundariyasi bilan tanishganda yuqoridagi e'tirofimiz haqligiga yana bir bora amin bo'ldik. Kursning maqsad va vazifalari tadrijiy tamoyil asosida, aniq rejada o'z aksini topgan. Tinglovchi-pedagoglarning kurs yakunida egallashi lozim ko'nikma, malaka hamda kompetatsiyalari orasida jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiyalardan xabardor bo'lish, adabiyot va folklor munosabatlarining nazariy-metodologik muammolarini bilish kabilarning o'rin olgani ushbu kursning ilmiy-nazariy va amaliy salohiyati ancha shakllangani va ma'lum tajribaga egaligini ko'rsatmoqda.

"Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi" deb nomlangan birinchi mutaxassislik modulida modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi haqidagi muhim tushuncha va tamoyillar, metodlarning adabiyotshunoslik ilmida tutgan o'rni, badiiy asarning formal qirralarini o'rganadigan metodlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

"Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga innovatsion yondashuv" deb nomlangan ikkinchi modulda sharq mumtoz adabiyotida she'r tuzilishi, mumtoz she'r nav'lari, oliy ta'limda aruz tizimini o'qitish muammolari, aruzning

nazariy asoslari haqida umumiy ma'lumot, mumtoz qofiyani o'qitish masalalari, mumtoz qofiya asoslari, uning tarkibiy qismlari, aruzda vasl, imola, taslim tushunchalari, rukn va uning turlari, bahrlar tasnifi kabi qator mavzular doirasida fanning mazmun-mohiyati yoritilgan.

Mutaxassislik modullaridan "O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari" modulida esa o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik masalalari, diniy oqimlar va islomgacha bo'lgan qalimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish tamoyillari, qoraxoniylar davri adabiyotining shakllanish omillari, g'aznaviylar davri adabiyotining shakllanish manbalari haqida o'quv uslubiy majmuasida to'liq ma'lumotlar berilgan.

Tinglovchilar o'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rin olgan. O'quv dasturini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarning asarlari, shuningdek, sohaga oid internet saytlaridan foydalanilgani ham mazkur dastur va o'quv uslubiy majmuasining mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Taqrizchilar:




F.f.d., prof. M. Abdullayeva



F.f.d., prof. S. Meliyev



F.f.d., prof. J. Eshonqul



Curriculum Review on Uzbek Literary Studies at Retraining Center and Professional development of Faculty Members under the Uzbek Language and Literature University

First of all, it should be noted that the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi has been making great achievements and results in the scientific and pedagogical direction, despite the fact that not much time has passed since its establishment. Therefore, the opening of the Retraining Center and Professional development of Faculty Members is also one of the famous institutions in Uzbekistan.

This curriculum sounds very interesting when I have had a look at it's content. The goals and objectives of the course are reflected in a clear plan based on the certain principle. The curriculum consists of three modules such as "Classification of contemporary approach in Literary Studies", "Innovative approach to teaching the structure of classical poetry in higher education", "The problems of classification of the history of Uzbek literature".

The goals and objectives of the course are reflected in a clear plan based on the certain principle. The competences that faculty members should acquire are included at the end of the course. All three models consist in very important topics, such as the role of literary analyses in understanding literary text, the structure of poetry in Eastern classical literature, types of classical poetry, problems of teaching aruz in higher education, the theoretical and methodological issues of classification of history of Uzbek literature which plays very important role in understanding main direction of the Literature.

I think the curriculum of Uzbek Literary Studies was successfully formed by professional teachers and it will be very useful for faculty members who are teaching in this filed.

Professor A. Oldfield
Castol Carolina University
the head of the Department of World
Literature, USA